

P. Baratov

O'zbekiston tabiiy geografiyasidan amaliy mashg'ulotlar



26.82
B-30

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

P. BARATOV

O'zbekiston tabiiy geografiyasidan amaliy mashg'ulotlar

*Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
51400 bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun
«Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» fanidan
o'quv qo'llanma sifatida tavsija etilgan*

*Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent - 2005*

285724

Taqrizchilar:

M. Mamatqulov — professor, geografiya fanlari doktori,
H. Vahobov — professor, geografiya fanlari doktori.

Ushbu o'quv qo'llanma ikki qism va ilovadan iborat. Birinchi qismda O'zbekiston tabiatining umumiyligi tafsifiga oid muammoli savol va topshiriqlar berilgan. Ikkinci qismda respublikamiz hududidagi tabiiy-geografik okruglarga oid qiziqarli savollar, topshiriqlar va ularni mustaqil bajarishga qaratilgan uslubiy ko'rsatmalar berilgan.

Ilovada O'zbekiston hududida joylashgan har xil tekisliklar, tog'lar, cho'llar, daroylar, ko'llar, vohalar hamda respublikamiz tabiiy komponentlariga oid jadvallar berilgan.

B 4306020600-79
360/04/-2005 - 2005

ISBN 5-8250-0972-8

© Cho'lipon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005-y.

MUQADDIMA

Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida geograflar tayyorlashda muhim fanlardan biri O‘zbekiston tabiiy geografiya kursidir. Bu fan orqali talabalar Vatanimiz tabiiy sharoiti va resurslarini chuqur o‘rganadilar, tabiat unsurlarining bir-biriga bog‘liq va aloqador qonuniyatlarini tushunadilar. O‘zbekiston tabiiy geografiyasini o‘qitish orqali ona-Vatan tabiatini yaxshi biluvchi hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishni targ‘ibot qiluvchi ajoyib pedagoglar yetishtiriladi.

O‘zbekiston tabiiy geografiyasi obyektiv holda mavjud bo‘lgan tabiiy hududiy komplekslar haqida tushuncha hosil qiladi. Bu fanning vazifasi Vatanimizning xilma-xil tabiiy-hududiy komplekslari, ularning asosiy rivojlanish qonuniyatlarini va ulardan amalda oqilona foydalanish hamda uni muhofaza qilish yo‘llarini o‘rgatishdan iborat.

Ushbu predmetni o‘rganish orqali ikkita muhim vazifa amalga oshiriladi. **Birinchidan**, talabalar O‘zbekiston tabiat unsurlarining alohida hamda butun komponentlarini tabiiy-hududiy komplekslar doirasida yaxlit holda o‘rganib, bilimlarini kengaytiradilar, tabiiy komponentlar orasidagi uzviy aloqadorlik qonuniyatlarini bilib oladilar. **Ikkinchidan**, ular Vatanimiz tabiiy boyliklarining holati, miqdori, sifati haqida xabardor bo‘ladilar, ulardan xalq xo‘jaligida noto‘g‘ri foydalanish oqibatida qanday salbiy holatlar sodir bo‘lishligini bilib oladilar. Bu esa O‘zbekiston iqtisodiy geografiyasi fanini o‘rganishning tayanch negizi hisoblanadi.

Talabalar O‘zbekiston tabiiy geografiyasidan amaliy mashg‘ulotlarni puxta bajarishlari orqali Vatanimiz tabiatining o‘ziga hos xususiyatlarini bilib olishlari bilan birga, tabiat unsurlarining rivojlanish qonuniyatlarini, bir-biriga uzviy

bog'liqligini, biror unsurning tabiiy holati o'zgarishi tezda ikkinchisiga salbiy ta'sir etishi sababini tushunib oladilar. Bu narsa nazariy bilimlarni amaliyat bilan birga olib borilgandagina talabaarning ijodkorligini uyg'unlashtiradi, ularda mustaqil fikrlash malakasini shakllantiradi. Agar talaba darslik, o'quv qo'llanmalar, har xil xarita va atlas ustida mustaqil ishlab, amaliy ishlarni puxta bajarish malakasini hosil qilmasa, nazariyadan olgan bilimlari bilan chegaralansa, ularning bilish doirasi, xususan, sinchkovlik, ijodkorlik xususiyatlari cheklanib qoladi. Oqibatda ular O'zbekiston tabiatni unsurlarining holatini, rivojlanish jarayonlarini, ular orasidagi aloqadorlik qonuniyati sabablarini, mohiyatini tub ma'nosи bilan tushunib yetmaydilar.

Talabalar O'zbekiston tabiiy geografiyasidan amaliy ishlar — topshiriqlarni bajarayotganda eng muhim masalaga — tabiiy geografiya tushunchasi — bu tabiiy-hududiy komplekslar tushunchasi ekanligiga alohida e'tibor berishlari kerak. Agar ular bu tushunchani yaxshi o'zlashtirsalar, tabiat yaxlit bir butun va ayrim o'zaro uzviy aloqada bo'lgan tabiiy komplekslardan tashkil topganligiga ishonch hosil qiladilar.

O'zbekiston tabiiy geografiyasidan amaliy ishlarni bajarish jarayonida talabalar berilgan topshiriqlarni puxta, sinchkovlik bilan bajarsalar, ular quyidagi qonuniyatlarning mohiyatini tushuna oladilar:

- tabiiy komplekslar unsurlaridagi barcha hodisa va jarayonlar alohida ajralgan holda emas, balki uzviy aloqada, bir-biriga bog'liq, bir-biriga o'zaro ta'sir natijasida rivojlanadi;

- tabiiy komplekslar shunchalik uzviy bog'liqki, agar uning biror unsuri tabiiy holatiga noto'g'ri ta'sir etilsa, u o'z navbatida boshqa unsurlarning holati o'zgarishiga sabab bo'ladi;

- tabiat komplekslarida zonallik va ritmiylik (tabiatning sutkalik, fasliy va yillik o'zgarishi, tog'larning hosil bo'lishi va boshq.) hodisasi mavjudligini;

- tabiiy komplekslarda modda va energiya aylanasi hamda uning geografik qobiq hayotidagi ahamiyatini;

- tabiat insonning yashash makoni, noz-ne'matlar yaratuvchi manba sifatida uni muhofaza qilish, tabiiy

boyliklardan oqilona foydalanib, ularni qayta tiklab boyitib borishni.

O'zbekiston tabiiy geografiya fanini o'rganish bo'yicha talabalarning fikrlash va bilish qobiliyatlarini shakllantirishda ularning mustaqil ravishda amaliy ishlarni bajarishlari muhim ahamiyatga ega. Chunki darslik, o'quv-qo'llanma, har xil adabiyotlar va xarita-atlaslar ustida mustaqil ravishda, sinchkovlik bilan ishlash, mashq qilish, berilgan topshiriqlarni puxta, sifatli bajarish tufayli talabalar uchun zarur bo'lgan quyidagi malaka va ko'nkmalar shakllanadi:

- turli mazmundagi va masshtabdagi xaritalar, atlaslar bilan ishlab, ularni bir-biriga taqqoslab, tahlil va sintez qilish tufayli talabalarda masofani, yo'nalishni, ma'lum tabiiy obyektlarning geografik o'rnini, unda sodir bo'layotgan tabiiy jarayonlarni, tabiiy obyektning hozirgi holatini, unga ta'sir etuvchi omillarni, tog' yonbag'ri va uning balandligi, cho'qqisi, bo'laklarga bo'linganligi, qiyaligi va boshqalarni aniqlash;

- O'zbekiston tabiiy unsurlarini bir-biriga taqqoslab xulosalar chiqarish;

- tabiiy-hududiy komplekslarga geografik tavsif berish;

- turli adabiyot va xarita-atlaslardan foydalanib, talabalar O'zbekistonning geologik tuzilishi, relyefi, iqlimi, suvlarli, tuproq-o'simlik qoplaming o'ziga xos xususiyatlari, ularning o'zaro aloqasi, zonal va azonal holda o'zgarishi haqida tushunchalarga ega bo'ladilar, natijada ularda bo'lg'usi o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan malaka va kompleks ko'nkmalar shakllanadi;

- O'zbekiston tabiiy unsurlarining aloqadorlik sababi, mohiyati, undan kelib chiqadigan hodisa-oqibatlarni bilib oladilar; O'zbekistonning tekislik qismida iqlimning quruqligi, yozda jazirama issiqning uzoq davom etishligi sababli uning o'simlik qoplami arid tiplidir yoki Qirqtog' asosan ohak, gips jinslardan tashkil topganligi tufayli karst jarayoni rivojlangan.

Yuqorida qayd qilinganlardan ko'rinish turibdiki, Vatanimiz tabiatini haqida chuqur bilim beradigan va uni muhofaza qilish yo'llarini tushuntiradigan geograflar tayyorlashda O'zbekiston

tabiiy geografiya fanidan amaliy mashg'ulotlarni sifatli, ongli ravishda bajarish muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin tajriba shuni ko'rsatadiki, ayrim talabalar dasturda ko'rsatilgan darslikdan tashqari ilmiy, ilmiy-metodik, ommabop geografik adabiyotlarni deyarli o'qimaydilar, maxsus xarita va atlaslar bilan ishlashda qiynaladilar. Ular ma'ruzadan palapartish yozib olgan juda qisqa konspektlari bilan cheklanib, natijada torgina ma'lumot egasi bo'lib qoladilar. Shuning uchun talabalarni amaliy ish jarayonida har xil xarita-atlaslar ustida ishlashga, mavzuga tegishli ilmiy, ilmiy-metodik adabiyotlarni o'qishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston tabiiy geografiyasidan o'qiladigan ma'ruzalar va bajariladigan amaliy mashg'ulotlar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Lekin bundan amaliy mashg'ulotlarning vazifasi nazariyadan olgan bilimlarni takrorlashdan iborat, degan ma'no chiqmaydi. Amaliy mashg'ulotlarda talabalar nazariyadan olgan bilimlarini amalda tadbiq etish, berilgan har xil topshiriqlarni mustaqil bajarib, tahlil qilib, tegishli xulosalar chiqarishga o'rganadilar, malaka va ko'nikma orttiradilar, shu tariqa geografiya o'qituvchisining kelgusi ishida o'sha malaka va ko'nikmalardan bemalol foydalanadilar.

O'zbekiston tabiiy geografiyasidan talabalar uchun o'quv qo'llanma (P. Baratov. «O'zbekiston tabiiy geografiyasi», Toshkent, «O'qituvchi», 1996-y.) mayjud. Lekin amaliy ishlar va ularni bajarishga oid o'quv qo'llanma yo'q. Bu esa mazkur fandan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda ma'lum qiyinchiliklarga sabab bo'limoqda. Shuni hisobga olib, «O'zbekiston tabiiy geografiyasidan amaliy mashg'ulotlar» o'quv qo'llanmasini yaratishni lozim topdik.

Ushbu o'quv qo'llanmani tayyorlashda quyidagilarni nazarda tutdik: talabalarda nazariyadan olgan bilimlarini mustahkamlash; turli mazmundagi xarita-atlaslar, raqamli ma'lumotlarni tahlil qilib tegishli xulosalar chiqarish; har xil raqamli ma'lumotlar asosida geografik diagramma, maxsus profillar, kompleks — tabiiy-geografik profil tayyorlash, chizish uslubini o'rgatish, bo'lg'usi geograf-o'qituvchilarda aniq bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularda mustaqil ishslash qobiliyatini yanada takomillashtirish,

har xil adabiyotlardan foydalanish, maxsus xarita-atlaslarni bir-biriga taqqoslab, xulosalar chiqarish malakasini shakllantirish va boshqalar. Shu maqsadda nazariyada yoritilmagan, o'quv qo'llanmada yetarli ma'lumot berilmagan mavzularga oid topshiriqlar berildi.

O'quv qo'llanma ikki qism va ilovadan iborat. Birinchi qismda O'zbekiston tabiiy geografiyasining umumiyligi tavsifiga bog'liq amaliy ishlar, ikkinchi qismda O'zbekiston tabiiy-geografik rayonlariga oid amaliy topshiriqlar berilgan. Ilova qismida esa har xil grafik, jadval, diagramma, profillar tayyorlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, shuningdek, tog'lar, tog' cho'qqilari, tekislik, botiq, cho'llar, daryolar, ko'llar, kanallar, suv omborlari, qo'riqxona va milliy bog'lar, buyurtmalar, «Qizil kitob»ga kirgan o'simlik va hayvonlar haqidagi ma'lumotlar mavjidi.

I qism

O'zbekistonning umumiy tavsifi

O'zbekistonning geografik o'rni, chegaralari va maydoni

I-topshiriq. O'rta Osiyo xaritalarini tahlil qilib, O'zbekistonning geografik o'rnnini tasvirlang.

a) O'zbekiston dunyoning qaysi yarim sharida hamda qaysi qit'ada joylashganligi hamda uning ekvatorga nisbatan geografik o'rni aniqlanadi. Toshkentdan ekvatorgacha, janubiy va shimoliy qutbgacha bo'lган masofalar xarita masshtabi yordamida necha gradus va kilometr ekanligi hisoblab chiqiladi (1-jadval);

b) O'rta Osiyo tabiiy xaritasi yordamida O'zbekistonning geografik o'rni qo'shni davlatlar geografik o'rni bilan taqqoslanib, uning qulay hamda noqulay tomonlari aniqlanadi;

d) Yevrosiyo xaritasidan foydalanib, O'zbekiston O'rta Osyoning qaysi qismida joylashib, qanday vodiylarni, tog' tizimlarini o'z ichiga olishini bilish;

e) O'zbekiston O'rta dengiz atrofidagi davlatlar bilan bir geografik kenglikda joylashsa-da, nima sababdan cho'iga xos landshaft vujudga kelganligini aniqlash;

f) O'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi bilan eng janubiy nuqtasi orasidagi gradus farqi ($45^{\circ}36'$ — $37^{\circ}10'$) $=8^{\circ}26'$ bo'lsa¹, o'sha ikki nuqta orasidagi masofa necha kilometr bo'ladi?

¹ Eslatma: 1° meridian yoyning uzunligi 111,1 km.

40° — 41° shimoliy kenglikdagi 1° li yoyning uzunligi 85 km.
(1-jadvalga qarang).

I-jadval.

Har xil kenglik va uzunliklardagi parallel va
meridianlar yoyi.

Geografik kenglik-lar, gradus hisobida.	Geografik kenglik bo'ylab, 1° parallellar yoyining uzunligi, m hisobida.	Ekvatoridan parallellargacha meridian yoyining uzunligi, m hisobida.	Kengliklar, gradus hisobida.	Geografik uzoqlik 1° meridian yoyning uzunligi, m hisobida.
37	89 013	4096 584	36-37	110 971
38	87834	4207 573	37-38	110 989
39	86 628	4318 580	38-39	111 007
40	85 396	4429 607	39-40	111 027
41	84 137	4540 654	40-41	111 047
42	82 852	4651 719	41-42	111 065
43	81 542	4762 804	42-43	111 085
44	80 208	4873 908	43-44	111 104
45	78 848	4985 032	44-45	111 124
46	77 465	5096 176	45-46	111 144
47	76 057	5207 339	46-47	111 163
48	74 627	5318 521	47-48	111 182
49	73 173	5429 723	48-49	111 209
50	71 697	5540 944	49-50	111 221
51	70 199	5652 185	50-51	111 241
52	68 679	5763 445	51-52	111 260

I-jadvalning davomi.

53	67 138	5874 723	52-53	111276
54	65 577	5986 021	53-54	111278
55	63 995	6097 337	54-55	111 298
56	62 394	6208 672	55-56	111316

O'zbekistonning eng sharqiy va eng g'arbiy chekka nuqtalari ($73^{\circ}10' = 56^{\circ}00' = 17^{\circ}10'$) orasidagi farqi $17^{\circ}10'$ bo'lsa, kilometr hisobida qancha bo'lishini hisoblab chiqish (jadvaldan foydalaning).

2-topshiriq.

a) amaliy ishlar daftariga O'rta Osiyodagi (Turkistondagi) mustaqil davlatlar yer maydonining ro'yxatini tuzing. So'ngra ularning yer maydoni kattaligini qiyoslovchi aylanma diagramma ham tuzing. Bunda O'rta Osiyo yer maydonini 100% deb olinadi. Har bir respublika maydonining kattaligi foiz hisobida beriladi (2-jadval ma'lumotlaridan foydalilanadi).

*2-jadval.**O'rta Osiyo davlatlari.*

Davlatlar	Maydoni, ming kv. km.
O'zbekiston Respublikasi	448,9
Qozog'iston Respublikasi	2717
Tojikiston Respublikasi	143
Qirg'iziston Respublikasi	198
Turkmaniston Respublikasi	488
Jami	3994,9

b) 3-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, O'zbekiston yer maydonining kattaligini Yevroсиyo, Afrika, Amerika qit'a-laridagi ba'zi bir davlatlar yer maydonining qiyosiy diagrammasini tuzish. Bunda ustunli diagrammaning gorizontal o'qida davlatlar, vertikal o'qida esa maydonining kattaligi (ming kv. km. hisobida) beriladi.

2^a-topshiriq. Urganch shahri bilan Toshkent shahri orasidagi masofani xaritada masshtab va gradus to'ri yordamida o'lchang, orasidagi farqni aniqlang. Buning uchun quyidagi vazifalarni bajaring:

Toshkent — Urganch orasidagi masofani (O'zbekiston tabiiy xaritasi, masshtabi 1:3 500 000) xaritada o'lchang, chiqqan qiymatni (21 sm) o'sha xarita masshtabiga ko'paytiring ($21 \times 35 = 735$ km). Demak, Toshkent — Urganch orasidagi masofa 735 km chiqdi. Lekin Toshkent — Urganch orasidagi bu masofa haqiqiy masofa emas. Chunki Toshkent — Urganch joylashgan kenglikning xususiy masshtabi¹ o'sha xaritaning bosh masshtabidan farqlanadi.

Toshkent — Urganch orasidagi masofa gradus to'ri orqali quyidagicha hisoblanadi. Toshkent — Urganch shaharlarning geografik o'rni (Urganch — $60^{\circ}3'$ sharqiy uzunlikda, Toshkent — $69^{\circ},3'$ sharqiy uzunlikda) aniqlanadi. So'ngra Urganchning geografik uzunligi Toshkentdan ayirib ($69^{\circ}3' - 60^{\circ}3' = 9^{\circ}0'$) tashlanadi, oradagi farq 84 km ga ($9 \times 84 = 746$ km) ko'paytiriladi. Bu yerda 84 km 41° kenglikdagi 1° yoyning uzunligini bildiradi. Demak, Toshkent — Urganch orasidagi haqiqiy masofa masshtab yordamida aniqlangan 735 km emas, balki gradus to'ri yordamida aniqlangan 746 km ekan. Shu yo'l bilan Toshkent — Termiz, Chirchiq — Nukus orasidagi masofani aniqlang.

3-jadval.

Dunyodagi ba'zi davlatlar yer maydonining ko'rsatkichi.

Davlatlar	Maydoni, ming km ²	Davlatlar	Maydoni, ming km ²
O'zbekiston	448,9	Vetnam	330
Avstriya	84	Yaponiya	373
Buyuk Britaniya	224	Livan	10,4

¹ Xaritalar bosh mashtabida (bosh mashtab ekvatorga to'g'ri keladi) joylar xatosiz tasvirlanadi. Ekvatorдан har ikki tomonga borgan sari mashtab bosh mashtabdan farqlanadi — bu xususiy mashtab hisoblanadi. Binobarin, xaritalarda ekvatorдан har ikki tomonga borgan sari undagi geografik obyektlar xato bilan tasvirlanadi.

3-jadvalning davomi.

Germaniya	355	Siriya	184
Bolgariya	111	Tunis	156
Gretsiya	133	Gvatemala	109
Italiya	301	Urugvay	187
Polsha	312	Belgiya	30,5

3-topshiriq. O'rtal Osiyo tabiiy va ma'muriy xaritalari yordamida O'zbekistonning chegaralarini o'rganish.

a) O'zbekiston O'rtal Osiyoning qaysi qismida joylashgan, qaysi davlatlar bilan chegaradosh? Chegara qaysi tekislik, vodiylar, qir, adir, tog' tizimi, daryo, ko'l, suv omborlari, qorriqxona va buyurtmalar orqali o'tadi? O'sha chegara o'tgan geografik obyektlar ro'yxatini tuzib, amaliy daftarga yozish kerak;

b) O'rtal Osiyo tabiiy xaritasi yordamida (masshtabdan foydalanib) O'zbekiston chegarasining umumiy uzunligini hisoblab chiqish. Bunda «Umumiy Yer bilimi»dan olgan bilimdan foydalaniladi. So'ngra O'rtal Osiyo ma'muriy xaritasidan O'zbekiston chegarasi qaysi davlatlar bilan necha kilometr masofaga cho'zilganligi aniqlanadi;

d) O'rtal Osiyo tabiiy va ma'muriy xaritalarini bir-biriga taqqoslab, O'zbekiston chegaralarini tabiiy va iqtisodiy aloqa qilish jihatidan qulay va noqulay tomonlarini aniqlash (4-jadvalga qarang);

e) O'zbekiston yozuvsiz xaritasiga uning shimoliy va janubiy chekka nuqtalarining geografik kengliklarini, sharqiy va g'arbiy chekka nuqtalarining geografik uzunliklarini yozib qo'yish. So'ngra chegaradosh davlatlarni belgilab, ularning nomlarini yozib, O'rtal Osiyo tabiiy xaritasi yordamida o'sha davlatlar chegaralari qaysi tepalik, vodiylar, adir, tog', daryo, suv omborlari orqali o'tishini bilib olish.

4-topshiriq. O'zbekiston Yer sharining 4-soat mintaqasida joylashgan. Agar O'zbekistonda, xususan, Toshkentda soat 14.00 bo'lganda, Tokio, Pekin, Krasnoyarsk, Ostona, Moskva, Varshava, London, Parij, Vashington, Kongo kabi shaharlarda soat necha bo'lishini aniqlang. Bunda «Umumiy

Yer bilimi»dan olgan bilimlaringizdan (soat mintaqalari xaritasidan) foydalanasiz.

5-topshiriq. O'zbekiston geografik o'rni va chegaralarini o'rghanish jarayonida uning tabiiy va iqtisodiy jihatlaridan qulay va noqulay tomonlarini ham tushunib olish zarur. Buning uchun quyidagi 4-jadvalning bo'sh qolgan qismini O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiiy, ma'muriy hamda boshqa xaritalarini bir-biriga taqqoslab, xulosalar chiqarib to'ldirish zarur (misol tariqasida jadvaldagi 1-2- savollarga javob berildi).

4-jadval.

O'zbekiston geografik o'rning tabiiy va iqtisodiy jihatdan qulay va noqulay tomonlari.

	Qulay tomonlari	Noqulay tomonlari
1	O'zbekiston hududi yaxlit quruqlikdan iborat bo'lib, ko'p qismi tekislik, vodiylar bilan tashkil topganligi tufayli iqtisodiy jihatdan rivojlanishi va rayonlararo aloqa qilish uchun qulay.	O'zbekiston hududining bir qismi dengiz va okeanlar bilan tutashma-ganligi tufayli tashqi iqtisodiy aloqa qilish uchun noqulay sharoit yaratilgan.
2	O'zbekistonning shimoliy va g'arbiy qismi tekislikdan iborat bo'lganligi uchun qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqa qilishga qulay sharoit yaratilgan.	Aksincha, sharqiy va janubiy chegara baland tog'lardan o'tganligi tufayli iqtisodiy aloqa qilishga noqulay sharoit yaratilgan.
3??
4??
5??
6??
7??

O'zbekistonning relyefi

O'zbekiston relyefiga oid amaliy ishlarni (topshiriqlarni) bajarish uchun «Umumiy Yer bilimi» va O'rta Osiyo tabiiy geografiyasida o'rghanilgan mazkur mavzuga asos bo'ladigan umumiy tushunchalar talabalar xotirasida qayta tiklanadi: Geotektura, morfostruktura, morfoskulptura kabi relyef turlari, akkumulyatsiya, eroziya, deflatsiya, burmali va palaxsa, tog', botiq, trop vodiysi, kara, sirk va boshqalar.

O'zbekiston relyefini puxta o'zlashtirib olish uchun O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy xaritalarini tektonik va geografik xaritalar bilan qiyoslab, ular ustida muntazam mashq qilib, quyidagi topshiriqlarni bajarish maqsadga muvofiqdir:

1-topshiriq. O'zbekistonning tog'lari (Talas, Piskom, Ugom, Qorjontog', Chotqol, Qurama, Mug'ultog', Farg'ona, Oloy, Turkiston, Molguzor, Nurota, Kuyota, Pistali, G'ubdintog', Qaraqchitog', Oqtog', Qoratog', Baxiltog', Zarafshon, Qoratepa, Zirabuloq, Ziyovuddin, Hisor, Chaqchar, Boysun, Kuhitang, Osmontarash, Beshnov, Eshakmaydon, Surxontog', Bobotog', Quljuqtog', Ovminzatog', Tomditog', Yetimtog', Bo'kantog', Aristantog', Sulton Uvays), plato-qirlari (Ohangaron, Ustyurt, Jarqoq, Avtaboch platolari, Beltog', Qorabovur, Qoplqnqir va boshq.)ni yozuvsız xaritaga qabul qilingan shartli belgilarni yozib qo'ying.

2-topshiriq. O'zbekistonning muhim botiqlari (Mingbuluoq, Mullali, Qoraxota, Oyoq-G'itma, Asakaovdan, Sariqamish), cho'llari (Mirzacho'l, Dalvarzin, Qoraqalpoq, Jizzax, Qarnob, Qarshi, Nishon, Sandiqliquum, Qizilqum) va vohalari (Chirchiq — Ohangaron, Farg'ona, Mirzacho'l, Jizzax, Samarcand, Buxoro, Qorako'l, Kitob — Shahrisabz, Qarshi, Surxon — Sherobod, Quyi Amudaryo)ni yozuvsız xaritaga tushirib, nomlarini yozib qo'yish.

Eslatma:

- a) agar ko'rsatilgan geografik nomlar yozuvsız xaritangizga sig'masa raqam qo'yib ilovada berish mumkin;
 - b) 1—2-topshiriqlarni bajarish jarayonida unda qayd qilingan geografik nomlarni yozuvsız xaritaga tushirish bilan cheklanmay, unga izoh tariqasida O'zbekiston relyefi geologik tuzilishiga bog'liqligini relyefning tabiat unsurlariga, xususan, iqlimiga, daryolarning xususiyatiga, yer osti suv rejimiga va boshqalarga ta'sirini qayd qilish zarur;
 - c) 1- va 2-topshiriqlarda qayd qilingan geografik obyektlar uzoq vaqt davom etgan geologik taraqqiyot natijasida endogen va ekzogen dinamik jarayonlarning o'zaro ta'siri natijasida vujudga kelgan.
- 3-topshiriq.** Yuqorida qayd qilingan O'zbekiston relyefi vujudga kelishi jihatidan geotektura, morfostruktura va

morfoskulptura kabi turlarga bo'linadi. Binobarin, O'zbekiston relyefining hozirgi qiyofasi qaysi tur ta'sirida vujudga kelganligini bilish zarur. Buning uchun O'zbekiston geografik atlasidagi (1-tom) tabiiy, tektonik va gemorfologik xaritalarni bir-biriga taqqoslab, relyefning qaysi shakli qaysi struktura ta'sirida kelib chiqqanligini aniqlab, quyidagi 5-jadvalni to'ldirish zarur.

5-jadval.

O'zbekiston relyefining genezisi jihatidan tasnifi.

Relyefning kelib chiqish turlari	Qaysi relyef turlari vujudga kelgan?
Geotektura (relyefning eng yirik shakllariga tog' tizimlari yoki tekislik platforma oblastlari kiradi).	Oloy tog' tizimi.
Morfostruktura (endogen kuchlar ta'sirida vujudga kelgan relyef shakllari — tog'lar, tog'lar orasidagi botiqlar va boshqalar kiradi).	?
Morfoskulptura (ekzogen kuchlar va ekzogen jarayontar bilan bog'liq boshqa omillar ta'sirida vujudga kelgan relyef shakllari — barxan, daryo qayri, okkumulyativ tekislik, tog' vodiysi va boshqalar kiradi).	?

4-topshiriq. O'zbekiston yoki uning biror qismining relyefi haqida tasavvurga ega bo'lish uchun uning gipsometrik (relyef) kesimini (profilini) chizish maqsadga muvofiq. Profil chizishdan oldin o'sha hududning yer usti tuzilishi haqida to'la ma'lumot beradigan xarakterli joy tanlanadi. So'ngra o'sha profil chizishga mo'ljallangan (masalan, 42° shm. kenglik bo'ylab) hududda uchraydigan tekislik, botiq, qir, daryo, tog' va boshqalar nomi hamda mutlaq balandligi amaliy ish daftariga yozib olinadi. Bu ishlar bajarilgach, profilning masshtabi aniqlanadi. Masshtab ikki xil vertikal (joy balandligini bildiradi) va gorizontal (bir obyekt bilan ikkinchi obyektning orasidagi masofani bildiradi) bo'ladi.

a) Qarshi shahri bilan Talas tog'ining Manas cho'qqisi orqali O'zbekiston hududidan o'tadigan chiziq bo'ylab relyef profilini chizish. Profilda asosiy oragrafik obyektlar (tekislik, botiq, qir, plato va boshq.) hamda daryo, ko'l ko'rsatiladi;

b) Ustyurt platosining Qorabavur balandligi bilan Namangan shahri orqali o'tadigan chiziq bo'ylab relyef profilini chizish;

d) Termiz shahri bilan Aydarko'l (taxminan 67° li meridian) orqali o'tadigan chiziq bo'ylab relyef profilini chizish.

Eslatma: relyef (gipsometrik) profil chizishda O'zbekiston geografik atlasining (birinchi qismi) betidagi tabiiy (relyef) xaritasidan hamda O'zbekistonning tabiiy (o'quv) xaritasidan foydalansa ham bo'ladi.

5-topshiriq. Laboratoriyyada O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy xaritasidan hamda O'zbekiston geografik atlasidan foydalanib, O'zbekiston hududida uchraydigan eng muhim relyef shakllarini quyidagi 6-jadvalning bo'sh qolgan joylariga tushirish (to'Idirish) kerak.

6-jadval.

Relyef shakllari.	Misol (nomi, balandligi, joylashgan o'rni)
Botiq — dengiz sathidan pastda turuvchi joy.	
Pasttekislik — dengiz sathidan 200 m gacha baland bo'lgan tekisliklar.	
Tekislik — dengiz sathidan 400—500 m balandgacha bo'lgan yerlar, ustki tekislik yonbag'ri yo'q, atrofiga asta-sekin pasayadi.	
Qir yoki platolar — dengiz sathidan 200—500 m bo'lib, usti uncha tekis emas, yonbag'irlari nisbatan tik.	
Past tog'lar — dengiz sathidan 500—1000 m balandda joylashib, qirralari yassilangan, yonbag'irlari nisbatan yotiqligina yemirilgan.	
O'rtacha balandlikdagi tog'lar — dengiz sathidan 1000—2000 m balandda joylashgan. Yonbag'irlari nisbatan tik, tog' cho'qqilari yaqqol rivojlangan.	
Baland (alp tur) tog'lar — dengiz sathidan 2000 m dan yuqorida joylashgan, qoyali cho'qqilari qirrali-arrasimon, yonbag'irlari tik, chiqish qiyinlashadi.	

6-topshiriq. O'zbekistonning G'arbiy Tyanshan tog' tizimidagi hududlar relyefining vujudga kelishida endogen va ekzogen jarayonlarning o'zaro ta'siri nimalardan iborat? Buning uchun quyidagi savollarga javob toping:

a) o'sha hududdagi relyef shakli kattaligi va vujudga kelishi jihatidan 5-jadvalda berilgan qaysi turga mansub?

b) o'sha hududda uchrovchi qaysi mezorelyef shakllari morfoskulpturaga mansub?


c) G'arbiy Tyanshanda uchrovchi eng muhim relyef turlaridan – shakllaridan qaysilar morfostruktura turiga mansub?

d) G'arbiy Tyanshan tog' cho'qqilarining shakllanishida endogen va ekzogen jarayonlarning o'zaro ta'siri nimalardan iborat?


7-topshiriq. Adabiyotlardan va O'zbekiston geografik atlasidan (birinchi qism) foydalanib, respublikamiz hududining qaysi qismida daryo va vaqtli suvlarning faoliyati natijasida, qaysi yerida shamolning ishi tufayli va qaysi joyida qadimiy muzliklar ta'sirida vujudga kelgan relyef turlari ko'proq tarqalganligini aniqlang. Bunda daryolarning ishi tufayli relyefning qaysi turi, vaqtli suvlar ishi oqibatida nimalar vujudga kelishi, shamolning ta'sirida yer yuzasi relyefida qanday o'zgarishlar sodir bo'lishligi bilib olinadi.

8-topshiriq. Vaqtli suvlar ta'sirida O'zbekistonning lyos tarqalgan hududlarida har xil shakldagi jarlar vujudga kelib, xalq xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli talabalar amaliy ishlar daftariga jarlarning vujudga kelish sabablarini, ularning qishloq xo'jaligiga, transportga, chorvachilikka qanday salbiy ta'sir ko'rsatishini bayon qilishlari zarur. Jarlarning xalq xo'jaligiga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini yaqqol tasavvur qilish uchun jarning gi psometrik xaritasi va fotosurati ilova qilinadi (1-rasm). Talabalar laboratoriya mashg'uloti chog'ida A – B chiziq bo'yicha jarning ko'ndalang profilini tuzishi kerak. Bunda vertikal masshtab gorizontal masshtabdan 10 yoki 15 marta kattaroq qilib olinadi.

9-topshiriq. O'zbekiston hududida shamolning ishi natijasida vujudga kelgan relyef shakllari ham mavjud. Xususan, qumli relyef shakllari (marzaqum, arnuyasimon qum, do'ng qum, marzabarxan va boshq.) O'zbekistonning qaysi qismida uchrashligi, ular qaysi sharoitda va qanday yo'llar bilan vujudga kelganligini O'zbekiston geografik atlasi (birinchi qism)dagи xaritalarni bir-biriga taqqoslab, adabiyotlardan foydalanib bilib olish kerak.



Gorizontallar har 0,5 m dan o'tkazilgan



I-rasm. Garizontallar har 0,5 m dan o'tkazilgan.

O'zbekistonning geologik tuzilishi va foydali qazilmalar

O'zbekistonning geologik tuzilishi va foydali qazilmalarini puxta o'rghanish uchun mavzuga oid topshiriq va amaliy ishlarni bajarish jarayonida geologiyadan olgan bilimlarni, mazkur mavzuga asos bo'ladijan umumiyligiga ega bo'lgan tushunchalar (geostruktura, antiklinari, sineklinari, antiklinal, sinklinal, antikliza, sinkliza, platforma, plita, kaledon, gertsin, alp tektonik jarayonlar, neotektonik harakatlar va boshq.)ni xotirada qayta tiklash zarur.


Amaliy ishlarni — topshiriqlarni bajarish jarayonlarida talabalar O'zbekiston geografik atlasi (birinchi qism)da «geologik», «tektonik» va «to'rtlamchi davr yotqiziqlari» xaritalaridan foydalanib, ularni O'zbekiston tabiiy xaritasi bilan taqqoslab, geostrukturalar hozirgi relyef shakllariga qanchalik uyg'unligini bilib olishlari mumkin.

1-topshiriq. O'zbekiston geografik atlasining (birinchi qism) «geologik» xaritasidagi ma'lumotlarni yozuvsiz xaritaga tushirib, quyidagilarga e'tibor bering:


- a) O'zbekiston hududining qaysi qismlarida paleozoy erasiga oid jinslar ko'proq tarqalgan? Sababini tahlil qiling;
- b) paleogen va neogen davr yotqiziqlari O'zbekiston hududining qaysi qismida ko'proq uchraydi, sababi nimada?
- c) nima sababdan O'zbekiston hududining tekislik va tog'lar orasidagi botiqlarida to'rtlamchi davr yotqiziqlari keng tarqalgan?
- d) nima uchun O'zbekiston hududining tog'li qismida otqindi jinslar keng tarqalgan?

2-topshiriq. Qarjantog' — Vodil orqali o'tkazilgan geologik profilni (2-rasm) tahlil qilib, unda uchraydigan jinslar qaysi davrga xosligini, nima sababdan Farg'ona vodiysisida asosan kaynazoy erasining yotqiziqlari, aksincha, G'arbiy Tyanshan tog'larida paleozoy erasiga xos jinslar, xususan, intruziv yotqiziqlari tarqalganligini tushunib olish zarur.

3-topshiriq. O'zbekiston hududining silur, perm, bur va neogen davrlarning paleogeografik xarita-chizmalarini (3-, 4-, 5-, 6-rasmlar) tahlil qilib, quyidagi vazifalarni bajaring:



2-rasm. G'azalkent bilan Vodil orqali o'tkazilgan geologik profil.




Masshtab 1 sm : 100 km

- Quruglik
- Tog'li oblastlar
- Dengiz
- Iqlim zonalarining chegarasi

- 1-Toshkent, 2-Farg'ona,
- 3-Samarqand, 4-Buxoro,
- 5-Qarshi, 6-Termiz,
- 7-Urganch, 8-Nukus.

3-rasm. Silur davrining paleogeografik kartasxemasi.



SHARTLI BELGILAR

	<i>Quruqlik</i>		<i>3-Samarqand, 4-Buxoro,</i>
	<i>Dengiz</i>		<i>5-Qarshi, 6-Termiz,</i>
	<i>Platfromalarining chegarasi</i>		<i>7-Urganch, 8-Nukus.</i>
	<i>Iqlim zonalaring chegarasi</i>		


4-rasm. *Perm davrining paleogeografik kartasxemasi.*

a) silur davrida O'zbekiston hududi o'rniда qanday paleogeografik muhit mavjud bo'lgan, ya'ni uning qaysi qismini quruqlik, qaysi qismini dengiz qoplab olgan?

b) perm davriga kelganda paleogeografik muhitda qanday o'zgarishlar yuz bergan, iqlimi sharoitlarda o'zgarishlar bo'lganmi?

d) bo'rnadagi davrida O'zbekiston hududida iqlimi sharoitning o'zgarishi qanday bo'lgan? Quruqlik maydoni respublikamiz hududining qaysi qismi hisobiga qisqarib, dengiz maydoni kengaygan?

e) neogen davriga kelganda O'zbekiston hududida quruqlik bilan dengiz maydonining o'zgarishi nisbatan qanday bo'lgan, ya'ni hududning qaysi qismlaridan dengiz chekinib, quruqlikka aylangan?



SHARTLI BELGILAR


- Quruqlik
- Dengiz
- Gips, tuzlar
- Platformalarning chegarasi
- Iglim zonalarining chegarasi
- 1-Toshkent, 2-Farg'on'a,
3-Samarqand, 4-Buxoro,
5-Qarshi, 6-Termiz,
7-Urganch, 8-Nukus.

5-rasm. Bo'r davrining paleogeografik kartasxemasi.

4-topshiriq. O'zbekiston geografik atlasi (birinchi qism)da-
gi tektonik xaritani tahlil qilib, yozuvsız xaritaga tushiriladi.
So'ngra quyidagi vazifalar bajariladi:

a) tektonik xaritadan Tyanshan epigersin orogeni bilan
Turon epigersin plitasining chegarasi aniqlanib, yozuvsız
xaritaga tushiriladi. So'ngra Tyanshan epigersin orogendagi
Chotqol — Qurama tizimiga kiruvchi eng katta antiklinor
burmali strukturalar va (Piskom, Chotqol, Ugom, Qarjantog'
va boshqalar) ular orasidagi sinklinoriylar (Piskom, Chotqol,
Nanay, Ohangaron va boshqalar, shuningdek, Farg'on'a
botig'i) chegaralari bilan yozuvsız xaritada, ular haqidagi
ma'lumotlar esa amaliy ish daftarida qayd qilinadi;

b) Tyanshan epigersin orogenidagi Turkiston — Hisor
strukturalari tizimiga kiruvchi eng katta antiklinoriylar (Tur-



SHARTLI BELGILAR

Masshtab Ism : 100km

- [Hatched pattern] Quruqlik
- [Cross-hatched pattern] To'g'li oblastlar
- [Vertical lines] Dengiz
- Platformalarning chegarasi

- 1-Toshkent, 2-Farg'ona,
- 3-Samarqand, 4-Buxoro,
- 5-Qurshi, 6-Termiz,
- 7-Urganch, 8-Nukus.


6-rasm. Neogen davrining paleogeografik kartasxemasi.

kiston, Nurota Arslontog‘, Tomditog‘, Bukantog‘, Quljatog‘, Zarafshon, Xisor, Boysun, Bobotog‘ va boshqalar) va ular orasidagi sinklinariylarni (Nurota — Quytosh, Samarqand, Surxon va boshq.) yozuvsız xaritaga tushirib, tavsif beriladi;

d) Turon epidogersin plitasiga O‘zbekistonning tekislik qismi kiradi, unda bir qancha katta-kichik strukturalar (ko‘tarılma va cho‘kmalar) mayjud. Binobarin, ularni tektonik xaritadan topib, yozuvsız xaritaga tushirib, tahlil qilib, amaliy ish daftarida qayd qilinadi;

e) tektonik xaritani O‘zbekiston relyef (tabiiy) xaritasi bilan taqqoslab, geostrukturalar qaysi relyef shakllariga to‘g‘ri kelishini aniqlab, amaliy ish daftariga yozib qo‘yiladi.

6-topshiriq. O‘zbekistonning neotektonik xaritasini (7-rasm) tahlil qilib, tabiiy (relyef) xaritasi bilan taqqoslab, uning



7-rasm. O'zbekistonning neotektonik kartaxxemasi.

hududining qaysi qismida ko'tarilish va pasayish yuz bera-yotganligini aniqlang. O'zbekiston tog'li hududlarida, xususan, G'arbiy Tyanshan tizimiga kiruvchi tog'larda izchil ko'tarilish kuzatilsa, tekislik qismlarida, aksincha, buning sababini tushuntiring.

7-topshiriq. O'zbekiston hududida, ayniqsa, uning yangi tektonik (neotektonik) harakatlar faol davom etayotgan tog'li qismida tez-tez kuchli zilzilalar bo'lib turadi. Lekin so'nggi yillarda O'zbekiston tog'oldi (Toshkent, Nazarbek zilzilalari) va tekislik (Gazli zilzilasi) hududlarida ham kuchli zilzilalar kuzatilmogda.

Buning sababini talabalar laboratoriyyada O'zbekistonning yangi tektonik xaritasini tabiiy xaritasi bilan taqqoslab, tahlil qilib javob topishlari kerak.

8-topshiriq. Yozuvsiz xaritaga foydali qazilmalar (O'zbekiston geografik atlasi birinchi qismida) xaritasida ko'rsatilgan qazilma konlarini tushiring. So'ngra quyidagi vazifalarni bajaring:

a) yoqilg'i foydali qazilmalariga nimalar kiradi va ular qanday tog' jinslari orasida uchraydi?

b) rudali foydali qazilmalar guruhiga nimalar kiradi va ular qanday yo'llar bilan vujudga kelgan hamda qaysi tur yotqiziqlar orasida uchraydi?

d) rudasiz foydali qazilmalar guruhiga qaysi ma'danlar kiradi va ular O'zbekiston hududida qanday joylashgan, qaysi davr va qaysi jinslar orasida uchraydi?

9-topshiriq. O'zbekiston hududidagi eng muhim qazilma boyliklar konlarini aniqlab, quyidagi jadval tariqasida tuzib bilib olish.

Qazilma boyliklar nomi.	Qayerdan qazib olinadi.	Qaysi tog' tizimida yoki tekislikda joylashgan.	Zaxirasi.	Qaysi viloyat (tuman) hududida joylashgan.
Masalan: ko'mir	Angren, Shorg'un	Qurama, Xisor	2,4 mlrd.t.	Toshkent viloyati, Surxondaryo viloyati

10-topshiriq. O'zbekiston geomorfologik xaritasini (O'zbekiston geografik atlasi birinchi qismi) tektonik, neotektonik

va tabiiy xaritalari bilan taqqoslab, tahlil qiling. So'ngra geomorfologik xaritadan ariddenudayyali plato, eol-akkumulyativ tekisliklar, ariddeflyatsiyali, sho'rxokli tekislik va botiqlar, allyuvial tekisliklar, ko'l va ko'l-allyuvial tekisliklar, prolyuvial qiya tekisliklar, ariddenudatsiyali tog'lar, erozion denudatsiyali tog'lar, abrazion va akkumulyativ qirg'oqlarni aniqlang.

O'zbekistonning iqlimi

O'zbekiston iqlimiga oid amaliy ishlarni (topshiriqlarni) laboratoriyada bajarish jarayonida, avvalo, respublikamizning iqlimi qanday omillar ta'sirida vujudga kelganligiga alohida e'tibor berish kerak.

Ayniqsa, Quyosh issiqligi (radiatsiyasi) shimaldan janubga, quyidan yuqoriga (tog'ga) tomon o'zgarib borishiga nimalar sabab bo'lganligini aniqlash, nima uchun O'zbekistonni «serquyosh o'lka» deyish sababini bilib olish zarur. Shuningdek, O'zbekiston hududiga esuvchi havo oqimlari va ularning xususiyatlarini; yanvar, iyul izotermalarining o'zgarish sababbrarini; yillik yog'in miqdorini oylar va hudud bo'yicha taqsimlanish qonuniyatlarini; nima uchun bir geografik kenglikda joylashgan ikki nuqtaning har xilligini; nima sababdan yuqoriga (tog'ga) ko'tarilgan sari yog'in miqdorining o'zgarishini; nima uchun yozda O'zbekiston tekislik qismida yog'in vujudga kelmay (kondensatsiya jarayoni yuz bermaydi) tog'ga ko'tarilgach, kondensatsiya jarayoni yuz berib, yog'in yog'ishini; O'zbekiston tekislik qismida nima uchun yog'in miqdoriga nisbatan mumkin bo'lgan bug'lanish kattaligini; O'zbekiston hududida qanday mahalliy shamollar mavjud va ularning vujudga kelish sababbrarini hamda boshqalarni talabalar nazariyadan olgan bilimlari asosida yanada puxtarloq bilib olishlari va buni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishlari zarur.


I-topshiriq. Nazariyadan olgan «O'zbekiston iqlimi» mavzusi haqidagi bilimlarni yana bir bor xotiraga olib hamda har xil xaritalar va atlaslarni bir-biriga taqqoslab tahlil qilib,

respublika iqlimining shakllanishiga (vujudga kelishi) ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlab, amaliy ishlar daftariga qayd qilish.


2-topshiriq. O'zbekiston hududida Quyosh issiqligining (radiatsiyasining) taqsimlanishi nimalarga bog'liq. Talabalar laboratoriyada har xil adabiyotlardan, xaritalardan, iqlim ma'lumotnomalaridan foydalanib va «Umumiy Yer bili-mi»dan olgan bilimlariga tayangan holda Quyosh issiqligining taqsimlanishiga ta'sir etuvchi quyidagi omillarga qisqacha tavsif berishlari kerak:

- a) Yer bilan Quyosh orasidagi masofaga;
- b) Quyosh nurining atmosferadagi o'tish yo'li uzunligiga;
- d) Yer yuzasiga kelayotgan quyosh nurining tushish burchagiga;
- e) Quyoshning yoritish davri uzunligiga;
- f) Yer yuzasi holatiga;
- g) Yer yuzasi havosining (atmosferaning) bulutli daramasiga.

3-topshiriq. O'zbekiston yer yuzasi relyefiga bog'liq holda Quyosh nurining har xil burchak hosil qilib tushishidan vujudga keladigan energiya holati: bunda quyosh zenithda va gorizontdan 60° balandda (8-rasm) turgandagi miqdori solishtirib ko'rildi.



8-rasm.



9-rasm. Quyosh nurining tushish burchagiga bog'liq holda radiatsiyaning intensivligi. Bu yerda $a, b; a_1, b_1; a_2, b_2$ larning maydoni teng.

4-topshiriq. 9-rasmdagi $a, b; a_1b_1; a_2b_2$ larning maydoni teng. Lekin quyoshdan olayotgan radiatsiya (issiqlik) miqdori har xil, buning sababini tushuntirib bering.

5-topshiriq. Tarqoq radiatsiyaning yalpi radiatsiyaga nisbatan (7-jadval ma'lumotlaridan foydalanib) $60^{\circ} - 70^{\circ}$ shimoliy kenglikdagi holati bilan O'zbekiston joylashgan kengliklardagi holatini bir-biriga taqqoslab, quyidagilarni tushuntirib bering:

a) nima uchun qutbiy kengliklarda tarqoq radiatsiya Quyoshdan kelayotgan yalpi radiatsiyaning $55 - 50\%$ ni tashkil etgan holda bu ko'rsatkich O'zbekiston hududida $32 - 41\%$ dan oshmayd?

b) jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, O'zbekiston hududi joylashgan kengliklarda tarqoq radiatsiya miqdori qish oylarida katta, yozda, aksincha, nisbatan kam, buning sababi nimada?

7-jadval.

Tarqoq radiatsiyaning yalpi radiatsiyaga nisbati (%).

Kengliklar (grad.)	Oylar												Yillik
	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	
70-90	-	56	59	61	69	65	61	56	59	60	60	-	61
60-70	59	57	56	54	55	53	50	51	54	56	58	60	
40-50	45	41	42	39	39	38	37	37	38	41	42	49	41
30-40	34	35	34	33	32	30	30	30	29	30	31	33	32

6-topshiriq. O'zbekiston geografik atlasidagi (birinchi qism) quyosh radiatsiyasi xaritasidan foydalaniib, quyidagi shaharlar orqali o'tgan chiziqlar bo'ylab yillik yalpi quyosh radiatsiya miqdorining o'zgarishini aniqlang:

- a) Toshkent — Jizzax — Samarcand — Shahrisabz — Termiz;
- b) Qarshi — Buxoro — Urganch — Nukus — Mo'ynoq;
- c) Guliston — Qo'qon — Farg'ona — Andijon — Namangan;
- d) Tomdi — Zarafshon — Navoiy — Buxoro — Qorako'l.

7-topshiriq. Nima uchun va qanday omillar ta'sirida O'zbekiston hududida yer yuzasi bir xil isimaydi?

8-topshiriq. O'zbekistonda yilning turli fasllarida Quyoshning tushki balandligini o'zi turar joyi yoki o'qiyotgan shahari misolida aniqlash. Bu topshiriqni hal qilish uchun talabalar quyidagi vazifalarni bajarishlari kerak:

a) laboratoriyada O'zbekistonning biror joyida, xususan, Toshkent shahrida teng kunliklarda (21- mart va 23- sentabrda) tush vaqtida Quyoshning gorizontdan balandligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi: $h = 90^\circ - f$.

Bu yerda: h — ma'lum joyning kengligi; f — Quyoshning tushda gorizontdan balandligi. Toshkentda teng kunliklarda tushda Quyoshning gorizontdan balandligini bilmox uchun, eng avvalo, geografik xaritalardan uning geografik kengligini (Toshkent 41° shm. kenglikda joylashgan) aniqlab olinadi. So'ngra yuqoridagi formulaga solinadi: $h = 90^\circ - 41 = 49^\circ$. Demak, Toshkentda teng kunlikda Quyoshning gorizontdan balandligi 49° bo'ladi;

b) Toshkentda yozgi (22- iyun) va qishki (22- dekabr) Quyosh turish vaqtida uning tushdagi gorizontdan balandligini aniqlashda quyidagi formuladan foydalilanadi: $h = 90^\circ - f_{\psi\delta}$.

Bu yerda: h — Quyoshning tushda gorizontdan balandligi; f — geografik kenglik; $\psi\delta$ — quyoshning og'ishi, ya'ni $23^\circ 27'$ dir¹. Chunki yozgi quyosh turishi vaqtida Quyosh ko'proq shimoliy yarim sharni yoritadi. Shu sababli « δ » (quyoshning og'ishi) oldiga «+» qo'yiladi, aksincha, qishki quyosh turishida u janubiy yarim sharni yoritadi va « δ » oldiga «-» qo'yiladi. Masalan, Toshkentda yozda (21- iyunda)

Quyoshning tushdagi gorizontdan balandligi ($h = 90 - 41^\circ + 23^\circ 27' = 72^\circ 27'$) $72^\circ 27'$ bo'ladi. Aksincha, qishda (22-dekabrdan) Quyoshning tushda gorizontdan balandligi ($h = 90 - 41^\circ - 23^\circ 27' = 25^\circ 73'$) $25^\circ 73'$ bo'lib, kunning uzunligi 9 soat 11 daqiqaga teng bo'ladi.

Talabalar yuqorida ko'rsatilgan usul bilan Samarqand, Qarshi, Termiz va Nukus shaharlarida yilning turli fasllarida Quyoshning tushki gorizontdan balandligini aniqlashlari kerak.

9-topshiriq. 8-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, Toshkent, Farg'ona, Termiz va To'rtko'l shaharlarida Quyosh nur sochib turish davrini soat hisobida oylar bo'yicha aks ettiruvchi diagramma tuzing. Bunda diagrammaning horizontal o'qiga oylar, vertikal o'qiga Quyosh nur sochib turish davri (soat hisobida) ko'rsatiladi. So'ngra ularni bir-biriga taqqoslab, nima uchun Quyosh nur sochib turish davri Termizda Farg'ona, Namangan va Toshkentga nisbatan ko'pligi tushuntirib beriladi. Nima uchun Quyosh Farg'onaga nisbatan Namanganda ko'proq nur sochib turadi, sababini bilib oling.

8-jadval.

O'zbekistonda Quyosh nur sochib turish davri (soat hisobida).

Stansiyalar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	Yilligi
Toshkent	114	125	170	235	316	316	395	372	305	236	156	104	2889
Farg'ona	96	130	143	200	286	312	347	344	302	221	115	103	2599
Samarqand	105	132	162	217	309	363	392	370	306	233	167	121	2877
Kitob	127	136	139	191	263	322	314	325	283	216	138	119	2603
Termiz	144	149	186	244	326	362	390	358	312	264	183	141	3059
To'rtko'l	95	133	180	235	328	373	347	374	316	234	173	114	2952
Chimboy	94	125	171	237	314	362	360	360	302	244	163	94	2850
Jizzax	98	104	137	206	297	349	384	364	290	230	144	108	2711
Namangan	125	129	163	218	272	306	339	338	292	231	156	102	2671
Taxiatosh	112	135	183	236	324	359	379	358	316	259	171	106	2937
Churuk	96	130	164	246	329	350	371	358	298	219	236	97	2794

¹Yozgi va qishki Quyosh turishi vaqtida tushda Quyosh ekvatorda emas balki tropik ustida, ya'ni $23^\circ 27'$ kenglikda 90° burchak hosil qilib tik tushadi.

10-topshiriq. O'zbekiston hududida yillik o'rtacha izotermalarning joylashishini tahlil qiling. Tabiiy va iqlim xaritalarini bir-biriga taqqoslab nima uchun, qanday omillar tu'sirida yillik o'rtacha izoterma Ustyurt platosida kenglik bo'ylab, Qizilqumda shimoli-sharqdan janubi-g'arba qadar, Zarafshon vodiysi, Qarshi cho'lida esa deyarli kenglik bo'ylab cho'zilganligini tushuntirib bering.

11-topshiriq. Tabiiy va iqlim xaritalarini bir-biriga qiyoslab, O'zbekiston hududida havo haroratining shakllanishi va joylashishining umumiyligini qonuniyatlarini aniqlash:

- iyul azotermaning hududiy joylashishi;
- yanvar azotermaning hududiy joylashishi;
- nima sababdan va O'zbekistonning qaysi qismida eng sovuq hamda eng issiq havo harorati joylashgan?
- O'zbekistonning qaysi qismida va nima sababdan yillik va oylik havo haroratining farqi (amplitudasi) katta?
- tekislikdan tog'ga tomon ko'tarilganda havo harorati qanday o'zgarib boradi?

Eslatma: yuqorida topshiriqlarni bajarishda ilovada qayd qilingan oylik va yillik havo haroratini tasvirlovchi 1-jadval ma'lumotlaridan ham foydalanish mumkin.

12-topshiriq. O'zbekiston tekislik qismidan tog'ga tomon ko'tarilgan sari har 100 m da harorat o'rtacha $0,6^{\circ}$ ga pasayadi. Vazifa: quyidagi balandliklar dengiz sathiga tenglashtirilsa, ularning o'rtacha yillik harorati necha gradus bo'ladi?

- 4200 m o'rtacha yillik harorat $4,2^{\circ}$ bo'lsa;
- 300 m o'rtacha yillik harorat $15,4^{\circ}$ bo'lsa;
- 1150 m o'rtacha yillik harorat $56,6^{\circ}$ bo'lsa;
- 760 m o'rtacha yillik harorat $10,5^{\circ}$ bo'lsa;
- 150 m o'rtacha yillik harorat $22,5^{\circ}$ bo'lsa.

Ma'lum bir balandlikdagi (masalan, 4200 m balandlikda o'rtacha yillik harorat $4,2^{\circ}\text{C}$ bo'lsa) harorat agar uning absolyut balandligi dengiz sathiga tenglashtirilsa, necha gradus bo'lishini aniqlash uchun quyidagi vazifalar bajariladi:

- joy balandligini 100 m ga bo'lish kerak: $4200:100=42$;
- chiqqan son 0,6 ga ko'paytirilishi kerak: $42 \times 0,6 = 25,2^{\circ}\text{C}$;

d) chiqqan songa joyning avvalgi balandligidagi harorat qo'shilishi kerak: $25,2^{\circ} + 4,2^{\circ} = 29,4^{\circ}\text{C}$.


Demak, 4200 m balandlikni dengiz sathiga tenglash tirilganda, o'rtacha yillik harorat $29,4^{\circ}\text{C}$ bo'lar ekan.

Talabalar laboratoriyyada yuqorida qayd qilingan yo'l bilan 12-topshiriqda berilgan *b*, *d*, *e*, *f* joy balandliklari dengiz sathiga tenglashtirilganda ularning yillik o'rtacha haroratlar qancha bo'lishini hisoblab chiqishlari kerak.

13-topshiriq. 10-rasmni tahlil qilib, quyidagi savollarga javob bering:

1. Nima uchun va qanday sabablarga ko'ra Qizilqumning qizigan yuzasidan yuqoriga ko'tarilgan sari havo harorati o'zgaradi?


2. Nima sababdan yuqoridan quyiga tushgan sari havo harorati o'zgaradi? Rasmdagi savol belgisi o'rniغا «yuqori» yoki «quyi» so'zini qo'yib, ularga izoh bering.



10-rasm.

14-topshiriq. Ilovadagi 1-jadval ma'lumotlari asosida Farg'ona, Guliston, Andijon, Buxoro, Qarshi, Urganch, Churuk kabi shaharlarning o'rtacha oylik havo harorati va yog'inlarning yil davomida o'zgarish grafigini tuzing. Bunda grafikning gorizontal o'qida oylar, vertikal o'qining chap tomonida harorat (gradus hisobida), o'ng tomonida yog'in miqdori (mm hisobida) ko'rsatiladi. Misol tariqasida Toshkent va Termiz shaharlaridagi havo harorati, yog'inlar miqdorining yil davomida o'zgarishi berilgan (11-rasm), Bunda havo harorati qizil rangli chiziqda, yog'in miqdorini ifodalovchi ustun-

TOSHKENT



chalar xohlagan rangda ifodalanadi.

15-topshiriq. O'zbekiston tabiiy xaritasi bilan iqlim xaritasini bir-biriga taqqoslab, nima sababdan yillik yog'in miqdori hudud va yil fasllari bo'yicha bir xil taqsimilanmayganligini tahlil qilib, quyidagi savollarga javob toping:


1. Nima uchun Quyi Amudaryoga, Farg'ona vodiysining markaziy qismiga yog'in eng kam tushadi?

2. Nima sababdan bir xil balandlikdagi tog'larning g'arbiy va janubi-g'arbiy yonbag'irlariga yog'in nisbatan ko'p tushadi?


3. O'zbekiston hudojida qaysi havo massalari ta'sirida yog'inlar vujudga keladi?

4. Qanday omillarga bog'liq holda yozda O'zbekiston tekislik qismiga yog'in deyarli tushmaydi, lekin tog'-ga ko'tarilgach, kondensatsiya jarayoni yuz berib, yog'in yog'adi?

TERMIZ



NUKUS



11-rasm. Toshkent, Termiz va Nukus shaharlardagi havo harorati, yog'inlar miqdorining yil davomida o'zgarishi.

5. Nima uchun va qanday omillar ta'sirida bahorda O'zbekiston hududiga eng ko'p, aksincha, yozda eng kam yog'in tushadi?

6. Quyi Amudaryoga bir yilda 100 mm atrofida yog'in yog'gan holda mumkin bo'lgan bug'lanishning, (potensial bug'lanish) miqdori 2000 mm ni tashkil etadi, binobarin, shuncha namlik nima hisobiga vujudga keladi?

16-topshiriq. O'zbekiston hududida yog'inlarning oylar va yil fasllarida taqsimlanish qonuniyatlarini haqida yetarli tasavvurga ega bo'lish uchun quyidagilarni bajarish zarur:

a) Toshkent, Navoiy, Sherobod, Farg'ona, Qo'qon, Andijon, Nukus, Churuk (Ustyurt) nuqtalarida yog'inlar oylar bo'yicha taqsimlanishining alohida-alohida diagrammasini tuzing. Bunda diagrammaning gorizontal o'qida oylar, vertikal o'qida yog'in miqdori ko'rsatiladi. So'ng ma'lum nuqtada qaysi oyda yog'in ko'p, qaysi oyda kam tushishi sababi harorat bilan taqqoslab tahlil qilinadi;

b) ilovadagi 2-jadval ma'lumotlaridan foydalanim, Toshkent, Qo'qon, Andijon, Samarqand, Navoiy, Qarshi, Termiz, Nukus shaharlarida va Ustyurt (Churuk)da yog'inlarning yil fasllari bo'yicha taqsimlanishining aylanma diagrammasini ishslash kerak. Bunda aylanmani (doira) 100% deb olinib, yil fasllaridagi yog'in miqdori ajratilib, har xil rangda beriladi. So'ngra nima sababdan va qanday omillar ta'sirida yoz faslida Qo'qon, Termiz, Samarqand va Toshkentda yog'in juda kam tushgan holda Nukus va Churuk (Ustyurt)da nisbatan ko'proq tushishligini izohlab bering.

17-topshiriq. Iglim xaritalari va ma'lumotnomalaridan foydalanim, Toshkent, Guliston, Kattaqo'rg'on, Qarshi, Urganch shaharlarida va Ustyurt platosida nisbiy namlikni quyidagi tenglama yordamida aniqlang:

$$N = \frac{a \cdot 100}{b}.$$

Bu yerda: N — nisbiy namlik; a — absolyut namlik yoki bir metr kub havoning to'ynishi uchun zarur bo'lgan suv bug'i; b — havoning to'ynishi uchun zarur bo'lgan suv bug'i. Misol keltiramiz, ma'lum haroratda havoning absolyut

(mutlaq) namligi 8,0 mm, havoning maksimal to‘yinishi uchun zarur suv bug‘lari 10,0 mm bo‘lsa, unda havoning

$$\text{nisbiy namligi: } N = \frac{8 \cdot 100}{10} = 80\% \text{ bo‘ladi.}$$

18-topshiriq. Chotqol, Guliston, Samarqand, Qarshi, Urganch meteorologik stansiyalaridagi namlik defitsenti (havoning maksimal to‘yinishi uchun zarur bo‘lgan suv bug‘lari bilan absolyut namlik orasidagi farq)ni aniqlang. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanasiz:

$$D = E - N.$$

Bu yerda: D — namlik defitsenti; E — ma’lum haroratda havoning to‘yinishi uchun zarur bo‘lgan suv bug‘larining miqdori; N — absolyut namlik. Masalan, ma’lum haroratda havoning maksimal to‘yinishi uchun zarur bo‘lgan suv bug‘i simob ustunining 19,1 mm ini tashkil etsa, absolyut namlik esa 17,2 mm bo‘lsa, unda ($D = 19,1 - 17,2 = 1,9$) namlik defitsenti 1,9 mm bo‘ladi.

19-topshiriq. Qo‘llanmaning ilova qismida berilgan ma’lumotlardan, iqlim xaritalaridan, ma’lumotnomalardan foydalanib, Chinoz, Chimyon, Qo‘qon, Navoiy, Sherobod, Xiva, Tomdi nuqtalaridagi namlik koeffitsiyenti quyidagi tenglama yordamida hisoblanadi:

$$K = \frac{R}{E} .$$

Bu yerda: K — namlik koeffitsiyenti; R — yog‘in miqdori mm hisobida; E — mumkin bo‘lgan (potensial) bug‘lanish, mm hisobida.

20-topshiriq. Nukus — Tomdi — Qo‘qon — Andijon — Namangan nuqtalaridan o‘tgan to‘g‘ri chiziq orqali iqlim profilini tuzing.

21-topshiriq. Tomdi — Navoiy — Kattaqo‘rg‘on — Qarshi — G‘uzor — Dehqonobod — Sherobod — Termiz nuqtalaridan o‘tgan chiziq orqali iqlim profilini tuzing.

Eslatma: 20, 21-topshiriqlarni bajarishda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

a) profilda yuqorida qayd qilingan nuqtalarning yanvar (qora rangda), iyul (qizil rangda) oyalaridagi o'rtacha yillik (yashil rangda) yog'in miqdori (havo rangda) ko'rsatiladi;

b) profilning gorizontal o'qida ko'rsatilgan nuqtalar (shaharlar, qishloqlar nomi yoziladi) vertikal o'qning o'ng tomonida o'sha nuqtalardagi oylik va yillik harorat, chap tomonida yillik yog'in miqdori ko'rsatiladi;

d) profil tuzib bo'lingandan so'ng ko'rsatilgan yo'naliish bo'yicha iqlim ko'rsatkichlari qanday va nima sababdan o'zgarishi, bunga relyef qanchalik ta'sir ko'rsatganligi tahliil qilinadi.

22-topshiriq. O'quv qo'llanmadan, iqlim xaritalaridan hamda ushbu qo'llanma oxirida berilgan ilovadagi ma'lumotlardan foydalananib, O'zbekiston hududiga qishda va yozda esuvchi havo oqimlarini aniqlab, bir-biriga taqqoslab, ularga tavsif berish. Bunda quyidagi holatlarga e'tibor berish kerak:

a) qishda O'zbekiston hududiga qaysi yo'naliishdan qanday havo oqimi esadi va umuman havo sirkulyatsiyasi necha foizni tashkil etadi?

b) yozda qaysi yo'naliishdan havo oqimlari esadi, ularning xususiyatlari umumiyligi havo oqimining necha foizini tashkil etadi?

d) qishda va yozda esuvchi havo oqimlarining qaysi yo'naliishdan keluvchi turi yog'in beradi, qaysi turi esganda havo ochiq va sovuq yoki iliq bo'ladi?

e) O'zbekiston hududiga qachon va qaysi faslda siklon va antisiklon havosi esadi hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

23-topshiriq. Ilovadagi 1-jadval ma'lumotlaridan foydalaniib, Chorvoq, Toshkent, Guliston, Qo'qon, Samarqand, Kitob, Termiz, Shofirkon, Nukus, Churuk kabi nuqtalarda sovuq bo'lmaydigan kunlarni aks ettiruvchi diagramma tuzing.

Bunda diagrammaning gorizontal o'qiga yuqorida ko'rsatilgan nuqtalar, vertikal o'qiga esa sovuq bo'lmaydigan kunlar qo'yiladi. So'ngra o'sha nuqtalarda nima uchun va qaysi omillar ta'sirida sovuq bo'lmaydigan kunlar miqdori har xil ekanligiga izoh bering.

O'zbekistonning suvlari

O'zbekiston suvlariga daryolar, ko'llar, suv omborlari va yer osti suvlari kiradi. Talabalar «Umumiy Yer bilimi» fanidan olgan bilimlarini xotiraga olib, laboratoriya ish jarayonida O'zbekiston suvlariga oid quyidagi vazifalarni bajarishlari kerak:

— daryoning geografik joylashishi, havzasining maydoni, daryo turlarining (shoxobchalarining) zichligi, uzunligi, daryolarning egri-bugriliqi, o'zanining kengligi, nishabi (qiyaligi), daryo oqimi, oqim modeli, oqim koeffitsiyenti, to'yinish turi, loyqaligi, muzlashi, kengligi, qirg'oq chizig'inining o'yilganligi to'g'risida har xil xaritalar yordamida amaliy ish bajarish;

— ko'l qozonining kelib chiqishi, maydoni, uzunligi, kengligi, qirg'oq chizig'inining o'yilganligi va boshqalar to'g'risida har xil xaritalar yordamida amaliy ish bajarish;

— ilovadagi 3-, 4-, 5-, 6-jadvallar, ma'lumotlar asosida hamda adabiyotlardan foydalanib, O'zbekiston suvlariga oid har xil diagrammalar, jadvallar tuzish;

— har xil xaritalar, atlaslar asosida O'zbekiston suvlarining tabiiy sharoiti haqida mustaqil ravishda ma'lumotlar to'plash kabi amaliy ishlarni bajarish malakasini shakllantirish.

1-topshiriq. O'rta Osiyo tabiiy xaritasidan foydalanib, O'zbekiston yozuvsiz xaritasiga daryolarni tushirib, nomlarini yozib, suv yig'adigan havzalarini aniqlab, qayerdan, necha metr balandlikdan boshlanishini, qayerga borib quyilishini bilib olish.

2-topshiriq. O'zbekiston daryolaridan birortasini, xususan, Qashqadaryo havzasining maydonini hisoblab chiqish. Bu topshiriqning bajarilishiga qaratilgan quyidagi ko'rsatmani beramiz.

Talabalar laboratoriyada O'zbekiston tabiiy xaritasi yoki atlasmardan foydalanib, ma'lum daryo havzasi maydonini planimer asbobi yordamida tezda hisoblab chiqishlari mumkin. Agar amaliy ish jarayonida planimer asbobi bo'limasa, ular paletka tayyorlab, daryo havzasini o'lchashlari mumkin.

Eslatma: paletka yasash uchun oq qog'oz varag'i olinib, yo'g'on qora tush bilan hajmi $1x1$ sm bo'lgan kataklar ajratiladi. Har bir katak yana o'z navbatida hajmi $0,5x0,5$ sm keladigan to'rt bo'lakka bo'linadi. Paletka tayyor bo'lgach, daryo havzasasi chegarasi belgilanib, kalka qog'oziga tushiriladi. So'ngra kalka (xitoy) qog'oziga paletka qo'yilib, katakchalar soni hisoblab chiqiladi. Paletka kataklarining havza maydoniga to'g'ri kelmaydigan chetki qismlari jamlanadi va necha katakka to'g'ri kelganligi hisoblanadi, so'ngra karta mashtabi yordamida uning maydoni topiladi. Masalan, karta mashtabi $1:500000$ ($1\text{sm} = 5 \text{ km}$) bo'lsa, u holda paletkalarning kichik katakchasi maydoni ($2,5x2,5 \text{ km} = 6,25 \text{ km}^2$) $6,25 \text{ km}^2$ bo'ladi. Katta katakning maydoni esa ($1x1\text{sm}$) $25,0 \text{ km}^2$ ($6,25x4 = 25,0 \text{ km}^2$) bo'ladi. Agar maydoni o'lchanayotgan daryo havzasiga paletkaning 40 ta katta kataklari to'g'ri kelsa, uning maydoni ($25x40 = 1000 \text{ km}^2$) 1000 km^2 bo'ladi. Talabalar shu yo'l bilan xohlagan daryo havzasini hisoblab chiqishlari mumkin.

3-topshiriq. O'zbekiston tabiiy xaritasi yoki atlasidan foydalanib, uning biror daryosi (Chirchiq daryosi) misolida daryo shoxobchalari (turlari)ning zichligini aniqlash.

Bu topshiriqnini bajarish uchun talabalar quyidagi formuladan foydalanishlari kerak:

$$D = \frac{V}{F}.$$

Bu yerda: D — daryo shoxobchalarining zichligi; V — havzadagi barcha katta-kichik daryolarning uzunligi (km hisobida); F — havza maydoni (km^2 hisobida).

4-topshiriq. Talabalar O'zbekiston tabiiy xaritasi yoki atlasidan foydalanib, biror daryoni, xususan, Chirchiq daryosining uzunligini sirkul, ho'llangan ip yoki kurvimeetr yordamida o'lhashlari mumkin.

Eslatma: daryoning boshlanish joyidan quyar yerigacha bo'lgan masofa sirkulda uch marta o'lchanib, chiqqan o'rtacha miqdor asos qilib olinadi va u xarita mashtabiga ko'paytiriladi. Chiqqan qiymat o'sha daryo uzunligini bildiradi. Sirkul bo'lmasa, ho'llangan ip daryoning boshlanishdan quyar

yerigacha yopishtirilib, uch marta o'lchanadi, chiqqan o'rtacha qiymat o'sha xarita masshtabiga ko'paytiriladi. Agar sirkul va ip bo'lmasa, daryo uzunligini kurvimetrik yordamida o'lhash mumkin.

5-topshiriq. Talabalar laboratoriyada O'zbekiston tabiiy xaritasidan foydalanib, Chirchiq daryosining egri-bugriligini aniqlashlari kerak. Daryoning egri-bugriliqi deb, daryoning umumiy uzunligi boshlanish joyi bilan quyar yerini birlashtiruvchi eng qisqa masofaga aytildi.

Chirchiq daryosining egri-bugrilikini aniqlash uchun qu'yidagi formuladan foydalaniladi:

$$K = \frac{D}{E}.$$

Bu yerda: K — daryoning egri-bugriliqi koeffitsiyenti, D — daryo yoki o'lchanilayotgan daryo qismining uzunligi; E — daryoning boshlanish va quyilish joyini birlashtiruvchi to'g'ri (eng qisqa) chiziqning uzunligi. Shu yo'l bilan Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Amudaryo va Sirdaryo o'zanining egri-bugrilikini aniqlang.

6- topshiriq. O'zbekistonning biror daryosi, xususan, Chirchiq daryosi o'zanining o'rtacha kengligini aniqlash. Daryo o'zanining o'rtacha kengligini aniqlashni talabalar dala amaliyoti davrida bajarishlari maqsadga muvofiqdir.

Eslatma: daryo o'zanining o'rtacha kengligini aniqlash uchun o'zanning xarakterli qismlarini tanlab olib, chiqqan qiymat qo'shilib, necha marta o'lchangan songa taqsimlanadi: daryo o'zanining kengligi A — qismida 32 m., B — qismida 35 m., V — qismida 25 m., G — qismida 32 m bo'lsa, o'zanning kengligi:


$$\left(\frac{32 + 35 + 28 + 33 = 32 \text{ m}}{4} \right) 32 \text{ m}$$

Ixo'ladi.

7-topshiriq. O'zbekiston tabiiy xaritasi yoki atlasidan foydalanib, Chirchiq daryo tizimining geografik sxemasini tuzish. Buning uchun, avvalo, Chirchiq daryosining chap va o'ng irmoqlarining uzunligi xarita masshtabi yordamida o'lchanib, quyidagi jadval to'ldiriladi:

Jadvalni to'ldirib bo'lgach, Chirchiq daryosining hidrografik tizimi tuzilishi chizilib, irmoqlari nomi yoziladi.

Chirchiq daryosi-ning irmoqlari	Irmoqlarning uzunligi, km		Asosiy daryoning quyilish joyidan irmoqlar quyiladigan joygacha bo'lgan masofa, km	Asosiy daryoning boshlanish joyidan irmoqlar quyiladigan joygacha bo'lgan masofa, km
	Chap	O'ng		



Chirchiq daryosining hidrografik tuzilishi.

8-topshiriq. O'zbekiston daryolarining, xususan, Zarafshon daryosining qiyaligini aniqlash. Buning uchun O'zbekiston tabiiy xaritasidan Zarafshon daryosining boshlanadigan va quyiladigan joyini topib, dengiz sathidan necha metr balandligi topiladi.

$$K = \frac{H_1 - H_2}{U}$$

Bu yerda: K — daryo o‘zani tagi yoki suv sathining qiyaligi; H_1 — daryo boshlanadigan joyning mutlaq balandligi; H_2 — daryo quyiladigan joyning mutlaq balandligi; U — daryoning uzunligi (km). Masalan, Zarafshon daryosi 2771 m balandlikdan boshlanib, 180 m balandlikda tugab, uzunligi 781 m bo‘lsa, u holda

$$\left(K = \frac{2771 \cdot 180}{181} = 3,3 \text{ m} \right) \text{ qiyaligi har bir km da } 3,3 \text{ m teng ekan.}$$

Talabalar shu yo‘l bilan Sirdaryo, Chirchiq, Qashqa-daryo, Surxondaryo kabi daryolarning qiyaligini Zarafshon daryosi qiyaligi bilan taqqoslashlari kerak.

9-topshiriq. Talabalar ilovadagi 3-jadval ma’lumotlaridan soydalanib, O‘zbekiston daryolarining oqim miqdorini aniqlashlari kerak.

Eslatma: daryo oqimi deb, ma’lum vaqt ichida oqib o‘tgan suv miqdoriga aytildi. Ma’lum daryoning yillik yoki oylik oqimini hisoblash uchun uning bir sekundda necha kubometr suv o‘tkazganligini bilish kerak. Buning uchun suv sarfini bir yillik sekundlar ($31,5 \cdot 10^6$) miqdoriga ko‘paytirish kerak. Masalan, ma’lum bir daryo sekundiga 38 m^3 suv o‘tkazgan bo‘lsa, uning yillik oqimi ($38 \text{ m}^3 \cdot 31,5 \cdot 10^6 = 1197000000 \text{ m}^3$ yoki $1,2 \text{ km}^3$) $1,2 \text{ km}^3$ ni tashkil etadi.

10-topshiriq. Talabalar laboratoriya mashg‘ulotlarida O‘zbekiston daryolarining (biror daryo misolida) oqim modulini aniqlashlari kerak. Oqim moduli — bu ma’lum daryo havzasi joylashgan yerdagi 1 km^2 yuzadan bir sekundda oqib chiqqan suv miqdori. Oqim moduli quyidagi formula yordamida topiladi:

$$M = \frac{Q \cdot 1000^3}{F}.$$

Bu yerda: M — oqim moduli; Q — ma’lum bir daryo sekundda o‘tkazgan suv miqdori; F — suv yig‘iladigan maydon (km^2).

Misol uchun, ma'lum bir daryo sekundiga 38 m^3 suv oqizgan bo'lib, uning suv yig'adigan maydoni 5000 km^2 ni tashkil etsa, oqim moduli quyidagicha bo'ladi:

$$M = \frac{38 \cdot 1000^1}{5000} = 7,6 \text{ l/sek har bir } \text{km}^2 \text{ yuzadan.}$$

Shu yo'l bilan Chirchiq, Zarafshon, Qashqadaryo va Sherobod daryolarining oqim modulini aniqlab, bir-biriga taqqoslab, daryoning sersuvligi uning oqim moduliga qanchalik bog'liqligini aniqlang.

11-topshiriq. Illovada berilgan 3-jadval ma'lumotlaridan foydalаниб, O'zbekiston daryolarining oqim koeffitsiyentini aniqlash. Daryoning oqim koeffitsiyenti, bu uning havzasiga yog'gan yog'in miqdorining qancha qismi daryoga kelib qo'shilganligi bo'lib, u quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$D = \frac{Q \cdot 100}{M}.$$

Bu yerda: D — oqim koeffitsiyenti; Q — suv oqimi; M — daryo havzasiga tushgan yog'in miqdori.

Masalan, ma'lum daryoning yillik oqimi $1,2 \text{ km}^3$, uning havzasidagi yillik yog'in miqdori 600 mm yoki $0,0006 \text{ kub kilometr } (\text{km}^3)$, suv yig'adigan havzasining maydoni 5000 km^2 bo'lsa, unda yillik tushgan yog'in miqdori ($5000 \times 0,0006 \text{ km}^3 = 3,0 \text{ km}^3$) $3,0 \text{ km}^3$ bo'ladi.

$D = \frac{1,2 \cdot 100}{3 \text{ km}^3} = 40\%$. Demak, daryo havzasiga tushgan yillik yog'in miqdorining 40% i to'planar ekan.

12-topshiriq. Yuqoridagi 9-, 10-, 11-topshiriqlardan foydalаниб, quyidagi 9-jadvalda ko'rsatilgan daryolarning bo'sh qolgan joylardagi o'rtacha yillik oqimi, oqim moduli va oqim koeffitsiyentini topish lozim:

¹ Bir daqiqa ichida oqizgan — o'tkazgan bir m^3 suvning ($1 \text{ m}^3 = 1000 \text{ m}^3 / \text{sek}$) 1000 litrga (sekundda) aylantirilgan qiymati.

O'zbekiston daryolarining hidrometrik ma'lumotlari.

Daryolar va kuzatish nuqtalari	Suv yig'it-ladigan maydoni, ming km ²	Uzamligi, km	O'rtacha suv sarfi m ³ /sek	O'rtacha yillik yog'in miqdori, mm. (taxminan olinadi)	O'rtacha yillik oqim miqdori, km ³	Oqim miqdori, l/sek	Oqim koefitsiyenti, %
Sirdaryo (Ko'kbuloq)	150,1	2137	732	400			
Norin (Uchqo'rg'on)	58,4	537	429	500			
Qashqadaryo (Kampirrotov)	24,1	177	270	400			
Chirchiq (Xo'jakent)	119,4	174	221	600			
Ohangaron (Turk)	4,0	236	23,5	400			
So'x (Sarikanda)	2,47	94	41,8	500			
Isfara (Toshqo'rg'on)	1,58	130	15,2	500			

9-jadvalning davomi.

Isfayrasoy (Uchqo'rg'on)	8,28	107	22,9	500		
Shohimardon (Pungan)	1,48	77	9,72	500		
Kosonsoy	1,4	154	8,50	500		
Amudaryo (Karki)	199,4	1437	1990	600		
Zarafshon (Dupull)	12,3	781	132	500		
Qashqadaryo (Chiroqchi)	8,78	310	24,8	500		
Surxondaryo (Molguzar)	8,23	196	86,5	400		
To'palandaryo (Zarchon)	2,20	112	52,7			
Sherobod (Sherobod)	2,95	171	7,49	350		

13-topshiriq. O'zbekiston tabiiy va iqlimiylarini taqqoslab, quyidagi 10-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, daryo oqimining ko'p va oz bo'lishi havzasining balandligiga va qorning yillik yog'in miqdoridagi hissasiga qanchalik bog'liqligini aniqlang.

Eslatma: yog'in qishda ko'p yog'adigan joylarda qorning yillik yog'indagi hissasi 2000 m da 58%, 4000 m da 96% bo'lsa, shu ko'rsatkich yozda 2000 m balandlikda 25%, 4000 m da 78% ni tashkil etar ekan (10-jadval). Binobarin, daryo oqimining ko'p va oz hosil bo'lishi yillik miqdoriga emas, balki yilning sovuq faslida tog'larda to'plangan qor zaxirasiga bog'liq.

Talabalar 10-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, nima uchun Ohangaron daryosiga nisbatan Chirchiq daryosi sersuv, Qashqadaryoga nisbatan Zarafshon sersuv, Norin daryosi Qoradaryoga nisbatan sersuvligini aniqlashlari kerak.

O'zbekiston tog'li qismida qorning yillik yog'in miqdoridagi hissasi ortib borishining mutlaq balandlikka bog'liq ekanligini 10-jadval ma'lumotlaridan foydalanib egri chiziq'ni ishlang. Bunda egri chiziqning gorizontal o'qiga mutlaq balandlik (m hisobida), vertikal o'qiga esa yozgi (qizil rangda) va qishki (qora rangda) qorning hissasini belgilovchi raqam (% hisobida) ko'rsatiladi.

10-jadval.

Qorning yillik yog'in miqdoridagi hissasining ortib borishi.

Suv yig'adigan maydonning o'rtacha balandligi, m	Qorning yillik yog'in miqdoridagi hissasi, % hisobida	
	Yozda yog'in ko'p yog'adigan joylarda	Qishda yog'in ko'p yog'adigan joylarda
1000	6	36
1500	17	46
2000	25	58
2500	40	66
3000	52	78
3500	63	86
4000	78	96

14-topshiriq. Ilovadagi jadval ma'lumotlaridan foydalanib, O'zbekiston daryolarini qaysi manbalardan (to'yinish turlari) suv toplashligini aniqlab, quyidagi 11-jadvalning bo'sh qolgan joylarini to'ldiring.

11-jadval.

O'zbekiston daryolarining to'yinish turlari.

Daryolar	To'yinish turlari				
	Muz-qor suvlariidan	Qor-muz suvlari-dan	Qor suvlari-dan	Qor-yom-g'ir suvlariidan	Suv eng ko'p bo'ladigan oylar
Amudaryo Sirdaryo Norin Qoradaryo Zarafshon Chirchiq Ohangaron Sangzor Qashqadaryo Surxondaryo Sherobod					

15-topshiriq. Ilovadagi -3, 4-, 5-, 6-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, O'zbekiston daryolarining ma'lum to'yinish turiga mansub daryo oqimining gidrografik diagrammasini tuzib, unga yog'in miqdori ham tushiriladi. Bunda diagrammaning gorizontal o'qiga oylar, vertikal o'qining chap tomoniga daryo oqimi ($m^3/sek.$), o'ng tomoniga yog'in miqdori (mm) beriladi. So'ng oqimning oylar bo'yicha taqsimlanishini qish, bahor, yoz va kuz fasllariga (har xil rangda) ajratib, suvi qaysi faslda va nima uchun ko'payishini yoki kamayishini tushuntirib berish.

16-topshiriq. Laboratoriya da daryolar bo'yicha bajariladigan amaliy ish oxirida gidrologik ma'lumotnoma, xarita, atlas va adabiyotlardan foydalanib, O'zbekiston daryolari haqidagi quyidagi 12-jadvalda ko'rsatilgan topshiriqlarga javob toping va bo'sh qolgan joylarni to'ldiring.

O'zbekiston daryolari haqida umumiy ma'lumot.

Daryolar nomi	Uzunligi, km	Suv yig'i-ladigan havzaning maydoni, kv.km	To'yin-nish turi	Orta-cha yillik sav	Oqim moduli, l/sek	Havzasiga tusha-digan yog'i-in, mm	Oqim koefiftisyeneti, %	O'rta-cha loyqaliigi, g/m ³	Muzlash davri, kun	Qayerdan boshlanishi	Qayer-ga quyili-shi	O'rta-cha yillik oqim miqdori, km ³	Qanday gidroin-shootlar qurilgan

17-topshiriq. Gidrologik ma'lumotnomha, xarita va ataslardan hamda o'quv qo'llanmadan foydalanib, Sirdaryo bilan Amudaryoni qiyosiy tasvirlang.

Tasvirlash uchun quyidagi taxminiy reja tavsiya etiladi.

1. Daryo havzasining geografik o'rni va umumiyligi tavsifi (boshlanishi, quyilishi, irmoqlari).
2. Daryo havzasining iqlimiyligi xususiyatlari.
3. Daryo qanday manbalardan to'yinadi?
4. Daryo suv rejimi.
5. Daryoning loyqaligi.
6. Daryoning muzlashi.
7. Daryodan qaysi kanallar boshlanadi?
8. Daryoda qanday suv omborlari va GES lar qurilgan?
9. Daryoning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.
10. Daryo bo'yida qanday shaharlar joylashgan?
11. Boshqa daryodan qanday hidrologik xususiyatlari jihatidan farqlanadi?


Eslatma: talabalar amaliy ish jarayonida ma'lum bir daryoga hidrologik tavsif berayotganlarida yuqorida qayd qilingan taxminiy rejani sharoitga qarab o'zgartirishlari (unga qo'shimcha qilishlari yoki ortiqcha tomonlarini olib tashlashlari) mumkin.

18-topshiriq. O'zbekiston daryolari tog'li qismida qishda harorat tekislikka nisbatan davomli va sovuq bo'lsa-da, yoppasiga muzlamaydi, buning sababini tushuntirib bering.

19-topshiriq. Nima sababdan Oloy va Pomir tog' tizmalaridan boshlanuvchi Amudaryo va Surxondaryo suvlari G'arbiy Tyanshan tog' tizmasidan boshlanuvchi Chirchiq va Ohangaron daryolari suvlariiga nisbatan loyqaligini tushuntirib bering.

19⁴-topshiriq. 12-rasmdagi ma'lumotlardan foydalanib, degish oqibatida (12-rasm) 1917—1944-yillarda Amudaryo qirg'og'ining yuvilishi necha metr yoki kilometr bo'lganligini (masshtab yordamida) hisoblab chiqing. So'ngra nima uchun Amudaryoning asosan o'ng qirg'og'i yuvilishining (yemirilishi) sababini tushuntirib bering.

20-topshiriq. O'zbekistonning tabiiy xaritasi va ada-biyotlardan foydalanib, ko'llar qozonining kelib chiqishini



12-rasm. Degish natijasida To'rtko'l shahri yonida Amudaryo o'ng qirg'og'inining siljish sxemasi (1917—1944-yillar).

guruhlarga ajratib, ularning maydonini paletka yordamida (2-topshiriqqa qarang) hisoblab chiqing.

21-topshiriq. Laboratoriyyada O'zbekistondagi biror ko'lning uzunligini, eng keng va o'rtacha kengligini hamda qirg'og'inining o'yilganligini aniqlash. Ko'lning uzunligini, kengligini topish uchun uning bir-biridan uzoqda turuvchi ikki nuqtasi belgilab olinib, oradagi masofa xarita masshabiga ko'paytiriladi. So'ngra quyidagi formula yordamida ko'lning o'rtacha kengligi aniqlanadi:

$$K = \frac{F}{U}.$$

Bu yerda: K — ko'lning o'rtacha kengligi; F — ko'l maydoni; U — ko'l uzunligi. Biror ko'l maydoni 6200 km^2 , uzunligi 175 km bo'lsa, unda ko'lning o'rtacha kengligi

$\left(\frac{6200}{175} = 35 \right)$ 35 km bo'ladi. Talabalar shu yo'l bilan


O'zbekistondagi har qanday ko'lning o'rtacha kengligini aniqlashlari mumkin.

Ko'lning qirg'oq chizig'i o'yilganligini aniqlashda quyidagi formuladan foydalilanildi:

$$M = \frac{F}{K}.$$


Bu yerda: M — qirg'oq chizig'inining o'yilganligi; F — maydoni; K — qirg'oq chizig'inining umumiy uzunligi.

22-topshiriq. 13-, 14-, 15-rasmlardagi ma'lumotlardan foydalaniib, Orol dengiziga quyilayotgan suv miqdorining kamayib borishi uning suv yuzasi, suv yuzasining maydoni, minerallashish darajasiga, atrof-muhit holatiga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirini tahlil qiling. Bunda 1960-yildan 2002-yilgacha



13-rasm. Orol dengiziga quyilayotgan suv miqdori.


Orol dengizi qancha suv yo'qotgan, sathi va maydoni qancha qisqargan, minerallashish darajasi qanchaga oshgan, qancha maydon quruqlilikka aylanganligini aniqlab chiqing. (13-, 14, 15 rasmlar).



Yillar	Sir daryodan quiyilayotgan suv	Amudaryodan quiyilayotgan suv	Jamii
1960	21,1	43	64,1
1961	13,4	30,9	44,3
1962	5,8	27,6	33,4
1963	10,6	33,1	43,7
1964	15	38,3	53,3
1965	4,7	25,5	30,2
1966	9,6	33,1	42,7
1967	8,7	27	35,7
1968	7,3	28	35,3
1969	17,5	55,5	73
1970	9,8	28	37,8
1971	8,2	15,8	24
1972	8,3	15,7	24
1973	8,9	31,2	40,1
1974	1	6,3	8,2
1975	0,6	10,6	11,2
1976	0,6	11,1	11,7
1977	0,5	9	9,5
1978	0,3	21,3	21,6
1979	3,7	11,1	14,8
1980	2,5	8,6	11,1
1981	2,5	6,3	8,8
1982	1,7	0,5	2,2
1983	0,9	2,3	3,2
1984	0,6	8	8,6
1985	0,68	3,4	4,08
1986	0,51	0,44	0,95
1987	1,6	8,2	9,8
1988	6,9	16,4	23,3
1989	4,4	1	5,4
1990	3,5	9	12,5
1991	4	12,5	16,5
1992	4,6	28,9	33,5
1993	7,9	18,8	26,7
1994	8,9	21,7	30,6
1995	5,2	5,1	10,3
1996	5,1	7,5	12,6
1997	4,6	2,2	6,8
1998	7,6	23,9	31,5
1999	5,5	6,4	11,9
2000	2,9	2,6	5,5
2001	2,69	0,38	3,07


SHARTLI BELGILAR

- Amudaryodan quyilayotgan suv
- Sirdaryodan quyilayotgan suv
- Jami



15-rasm. Orol dengizi.

Suv yuzasining maydoni kv. km



14-rasm. Orol dengizi.

O'zbekiston ko'llari haqida umumiy ma'lumot.

13-jadval.

Ko'llar nomi	Dengiz sathidan balandligi, m	Qayerda joylashgan	Maydoni, kv. km	Eng uzun yeri, km	Eng churqur yeri, m	Qurg' oq etizi g'unning urzunligi, km	Suv hajmi, km ³	Qaysi daryo quyiladi	Sho'rligi, %	Muzlash davri, kun	Qaysi daryo oqib chiqadi	Xo'jalik dagi ahamiyati

22^a-topshiriq. Qo'llanma oxirida ko'rsatilgan manbalardan foydalanib, O'zbekiston ko'llari haqida 13-jadvalda ko'rsatilganlarga javob toping.

23-topshiriq. Ilovada berilgan 8-jadval ma'lumotlaridan va tabiiy xaritadan foydalanib, O'zbekistondagi eng muhim kanallarni yozuvsız xaritaga tushiring, amaliy ish daftarida ularga qisqacha tavsif (qaysi daryoning qaysi qismidan boshlanadi, uzunligi, qaysi viloyat hududidan o'tadi, unda qurilgan suv omborlari va boshqa gidrotexnik inshootlar) bering.

24-topshiriq. Ilovadagi 9-jadval ma'lumotlari va O'zbekiston tabiiy xaritasidan foydalanib, yozuvsız xaritaga respublikadagi eng muhim suv omborlarini tushiring. So'ngra nima uchun va qanday maqsadlarni ko'zlab suv omborlari qurilishini izohlab bering.

25-topshiriq. O'zbekiston daryolarining potensial gidroenergiya resurslari miqdorini ko'rsatuvchi quyidagi 14-jadvalning bo'sh qolgan joylarini to'ldiring. So'ngra o'sha daryolarning energoresurs miqdorini ko'rsatuvchi qiyosiy diagramma tuzing. Diagrammaning gorizontal o'qiga daryolar, vertikal o'qiga daryoning potensial gidroenergiya resursining miqdori (ming KVT)ni joylashtiring.

14-jadval.

O'zbekiston daryolarining potensial gidroenergiya resurslari.

Daryo havzalari	Potensial gidroenergiya resurslari, ming KVT.	Umumiyligi gidroenergiya resursiga nisbati, %
Farg'ona vodiysidagi kichik daryolar	5096	
Chirchiq	4647	
Zarafshon	4362	
Sirdaryo	4083	
Amudaryo (O'zbek.hudud)	1289	
Qashqadaryo	808	
Ohangaron	735	
Boshqa daryolar	139	
O'zbekiston bo'yicha hammasi	2344,8	100

26-topshiriq. 16-rasmida berilgan artezian suv havzalari xaritasini tahlil qiling. So'ngra artezian havzalari ro'yxatini amaliy ishlar daftarida qayd qiling, qaysi artezian havzadagi mineral suvlardan xalq xo'jaligining qaysi sohasida foydalishni (shartli belgilari yordamida) bilib oling.


27-topshiriq. Ilavadagi 10-jadvaldan foydalananib, O'zbekiston yer osti suvlarining gidrolik rayonlar bo'yicha ishlatish yalpi miqdori va rayonlar bo'yicha taqsimlanishi % (foiz)ga aylantiriladi. So'ngra aylanma diagramma tuziladi. Bunda O'zbekiston bo'yicha hammasi ($906, m^3/sek$) 100% deb olinib, rayonlar hissasi (% hisobida) diagrammaning ichida ajratib ko'rsatiladi.

O'zbekistonning tuproq-o'simlik qoplami

O'zbekiston tabiiy unsurlarining xususiyatlari uning hamma qismida bir xil bo'limasa-da, ular bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lib, bir-biriga ta'sir etadi. Binobarin, O'zbekiston tuproq-o'simlik turlarining xilma-xilligi hududning geologik tuzilishiga, relyefiga, yer osti suvlar holatiga, iqlimiga bog'liq holda vujudga kelganligini talabalar amaliy ish jarayonida bilib oladilar.

Ma'lumki, O'zbekistonning tekislik qismi bilan tog'li qismi orasida tabiiy unsurlarning farqi katta. Shu sababli tekislik qismida tuproq-o'simlikning zonallik xususiyati mavjud bo'lib, cho'lga xos tuproq-o'simlik turlari shakllansa, aksincha, tog'li qismida balandlik-mintaqalanish vujudga kelgan. Har bir balandlik-mintaqanening tuproq, o'simlik qoplami o'sha hudud geomorfologik tuzilishiga, iqlimiga bog'liq holda sharoitga moslashgan. Agar O'zbekiston tog'li qismida tuproq-o'simlik qoplami relyefga (tog' yonbag'rining qiyaligiga, quyoshga nisbatan holatiga), tog' jinslariga bog'liq holda joylashsa, tekislik qismida iqlimga, yer osti suvlariga bog'liq holda joylashadi. Talabalar amaliy topshiriqlarni bajarishda shularga alohida e'tibor berishlari kerak.

1-topshiriq. O'zbekiston hududida tuproq va o'simlik qoplami quyidan (tekislikdan) yuqoriga (tug'g'a) tomon ko'tarilgan sari o'zgarish sababini tushuntiring.



Shartli belgilarga izoh
Yer osti suvlaridan kegasisida (1) sananda
(2) dasvlasch munsadurlarda, (3) kichikroq
dalatlarini sug orishsha va chorvachilliki sav
bilan ta'minlashtida, (4) issiqlik manzai
sifatida foydalanish mumkin bo'lgan joylar.
Ho'zirda mayliud bo'lgan va kelgisida kengaitvirlidigan
davolash stationarlarini.
Kegasisida yer osti suvlarini bilan qislog xo'julik
ekhlari sug oritidigan joylar.

Ariezian havzasingin chegarasi.
Ariezian havzasi ichidaqtган пасынган жойлар chegarası.
Yer osti suvları həsil bo'ladıغان joylardan təsir qırğılığı.
asosan, paleozoy yonqızıqlardan tərkib təppənərog'lıklär.

- I. Farg'ona artezian havzasi.
- II. Toshkent artezian havzasi.
- III. Qizilqum artezian havzaları:
- I—Markaziy Qizilqum artezian havzasi.
- 2—Tajikzak psh artezian havzasi.
- 4—Dehgonobod artezian havzasi.
- V. Surxondaryo artezian havzaları:
- I—Qarshi artezian havzasi.
- 2—Buxoro artezian havzasi.
- 3—Shimoli-shargiy Qizilqum artezian havzasi.
- 4—Ianubi-shargiy Qizilqum artezian havzasi.
- IV. Buxoro-Qarshi artezian havzaları:
- 1—G'ijdarov artezian havzasi.
- 2—Buxoro artezian havzasi.
- 3—Qarshi artezian havzasi.
- 4—Dehgonobod artezian havzasi.
- V. Surxondaryo artezian havzasi.
- I—Surxondaryo artezian havzasi.
- 2—Sherobod artezian havzasi.
- VI. Zarafshan artezian havzasi.
- VII. Chimkent artezian havzasi.
- VIII. Borsa kelmas artezian havzasi (taxminiy).
- IX. Asakaovdan artezian havzasi (taxminiy).

16-rasm. Artezian suv havzaları.

Cho'l, adir, tog' va yaylov mintaqalari qanday qonuniyat asosida ajratilgan, ularning quyi va yuqori chegaralari qanday balandliklardan o'tadi.

2-topshiriq. O'zbekiston tuproq xaritasini tahlil qilib, hudud bo'yicha qanday tuproq turlari mavjud, ularning qanday joylashganligini aniqlang.

3-topshiriq. O'zbekistonning relyef, iqlim va tuproq xaritalarini bir-biriga taqqoslab, nima uchun va qanday omillar ta'sirida uning tekislik qismida tuproqlar sho'rlanganligini aniqlang.

4-topshiriq. Ilovadagi 11-jadval ma'lumotlari asosida O'zbekiston hududida uchrovchi asosiy tuproq turlari maydonining kattaligini bildiruvchi diagramma tuzing. Bunda diagrammaning gorizontal o'qida tuproq turlari, vertikal o'qida o'sha tuproq turlari foiz hisobida ko'rsatiladi.

5-topshiriq. O'zbekiston tuproq xaritasini tahlil qilib, har bir balandlik (cho'l, adir, tog', yaylov) mintaqasida uchrovchi tuproq turlarini aniqlab, (shartli belgilari yordamida) amaliy ish daftarida qayd qilib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini bilib oling.

6-topshiriq. O'zbekiston tuproqlari tabiiy va sun'iy omillar ta'sirida ma'lum darajada eroziyaga uchragan. Binobarin, ko'proq eroziyaga sabab bo'lgan qanday tabiiy va sun'iy omillarni bilasiz, ularni amaliy ish daftariga qayd qiling.

7-topshiriq. Quyidagi 15-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, O'zbekiston tuproq eroziyasi turlari hissasini bildiruvchi aylanma diagramma tuziladi. Aylanma diagramma 100% deb olinib, eroziya turlarining hissasi ajratib ko'rsatiladi.

8-topshiriq. O'zbekiston tuproqlari yuqoridagi 7-topshiriqdagi 15-jadvalda ko'rsatilgan eroziya turlari ta'sirida turli darajada (kuchli, o'rtacha va kuchsiz) eroziyaga uchragan. Vazifa: quyidagi 16-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, har bir tur ta'sirida tuproq qay darajada eroziyaga uchraganligi (kuchli, o'rtacha, kuchsiz)ning maydonini bildiruvchi aylanma diagramma tuzilib, eroziya darajasining hissasi har xil rangda ajratilib ko'rsatiladi.

15-jadval.

O'zbekiston tuproq eroziyasi turlari.

Eroziya turlari	Umumiy maydonga nisbati, % hisobida
Suv eroziyasi	14,2
Irrigatsiya eroziyasi	1,6
Shamol eroziyasi	48,7
Suv va shamol eroziyasi	4,3
Eroziyaga uchramagan maydon	31,2
Hammasi	100

16-jadval.

O'zbekiston tuproqlarining suv, irrigatsiya va shamol ta'sirida eroziyaga uchraganlik darajasi.

Eroziya turlari	Umumiy maydonga nisbati, %			
	Kuchli	O'rtacha	Kuchsiz	Hammasi
Suv eroziyasi	42,9	26,9	30,2	100
Irrigatsiya eroziyasi	19,1	20,9	60,0	100
Shamol eroziyasi	10,8	55,6	33,6	100

«Yer resurslarini muhofaza qilish» xaritasidan foydalanib, tuproqni suv, irrigatsiya va shamol eroziyasidan saqlash va uni qayta tiklashga qaratilgan chora-tadbirlarni bilib oling.

9-topshiriq. O'zbekiston tuproqlari eroziyaga uchrashidan tashqari har xil omillar ta'sirida ifloslanib, zaharlanib, tuproq tarkibidagi mikroorganizmlar miqdori kamayib ketadi. Vazifa: har xil adabiyotlardan va P. Baratovning «O'zbekiston tabiiy geografiyasi» («O'qituvchi» nashriyoti, Toshkent — 1996-yil) o'quv qo'llanmasi (ilovadagi 20-rasm) ma'lumotlaridan foydalanib, tuproqni ifloslovchi omillarni bilib oling.

10-topshiriq. O'zbekiston tabiiy xaritasidan cho'l mintaqasiga kiruvchi hududlarni aniqlab, O'zbekiston geografik atlasidagi o'simlik xaritasining shartli belgilari va undagi ma'lumotlar yordamida cho'l mintaqasida qanday o'simliklar turi mayjudligini aniqlang.

11-topshiriq. O'zbekiston tabiiy, iqlimi va o'simliklar xaritalarini tahlil qilib, o'simliklar cho'l sharoitiga qanday moslashganini hamda nima uchun va qanday omillarga ko'ra o'simliklarning ildizlari uzun, tanasi semiz, sertuk, barglari ignasimonligini tushuntirib bering.

11^a-topshiriq. O'zbekiston geografik atlasidagi o'simliklar xaritasidan va ushbu qo'llanmadagi 17-rasm ma'lumotlaridan foydalanib, respublika hududida ko'proq uchraydigan archa, yong'oq, pista, saksovul, burgan, shuvoq, juzg'on va boshqa o'simliklar tarqalgan joylarni aniqlang. 17-jadvalda O'zbekistonda keng tarqalgan o'simliklar maydoni aylanma diagrammada beriladi. Unda aylanma diagramma 100% deb olinib, o'simliklar hissasi ajratib ko'rsatiladi.


17-jadval.

O'zbekistonda keng tarqalgan o'simliklar.

O'simliklar	Umumiy maydonga nisbatan, %
Saksovul	60,6
Archa	9,9
Charkas	6,8
Turang'il	2,6
Grebenshik	9,1
Yong'oq	2,3
Qandim	1,3
Boshqa tur o'simliklar	7,4
Hammasi	100

11^b-topshiriq. O'zbekistonning tabiiy va o'simlik xaritalarini bir-biriga taqqoslab tahlil qilib, tabiat mintaqalarining quyi va yuqori chegaralarini aniqlab, yozuvsız xaritaga tushiriladi. So'ngra har bir balandlik (cho'l, adir, tog', yaylov)da mintaqaga uchun xarakterli va keng tarqalgan o'simliklar ro'yxatini tuzib, yozuvsız xaritaga ilova qilinadi.

12-topshiriq. O'zbekiston geografik atlasining (birinchi qism) 96-betidagi «Foydali yovvoyi o'simliklar xaritasi»dagi ma'lumotlarni yozuvsız xaritaga tushiring. So'ngra quyidagi 18-jadvalda ko'rsatilgan o'simliklardan qaysi maqsadlarda foydalanish mumkinligini bilib, amaliy ishlar daftarida qayd qiling.



17-rasm. O'zbekistonndagi ayrim o'simliklarning targalishini ko'rsatuvchi xarita-chizma.

Foydalı yovvoyi o'simliklar.

Qaysi maqsadda foydalaniladi	Foydalı o'simliklar turlari
Oshlashda	Taran, rovoch, shavel, juzg'un, yulg'in, anjabar, choy o't, tikanlı qo'ziquloq...
Ko'pitirishda	Behi, yetmak, kovul, sigir quyruq, yer sovun ...
Bo'yashda	Marena, sofara, qum akatsiyasi, dalasovuno't, pista bargi...
Manzara yaratishda	Lola, lolaqizg'aldoq, chuchmoma...
Qog'oz-sellyuloza olishda	Qamish...
Dorivorlikda	Sasiqmatal, ermon, chuchukmiya, na'matak, otqulok, bangidevona, gulxayri, astragal, zirk, bo'tako'z, zira, chakanda, ituzum...
Qatron olishda	Sassiq quvrakning har xil turlari.
Mevali o'simliklar	

13-topshiriq. «O'zbekiston qizil kitobi»dan, har xil adabiyotlardan va P. Baratovning «O'zbekiston tabiiy geografiyası» o'quv qo'llanmasi hamda mazkur kitob ilovasidagi 21-rasm ma'lumotlaridan foydalanib, o'simliklarga salbiy ta'sir etuvchi omillarni tahlil qiling. So'ngra yo'qolgan va yo'qolish arafasida turgan, yo'qolib borayotgan noyob va kamyob o'simlik turlari ro'yxatini tuzib, amaliy ish daftarida qayd qiling (ilovadagi 12-jadvaldan foydalaning).

14-topshiriq. Amudaryoning quyi qismidagi Beltog' balandligi bilan Hazrati Sulton cho'qqisi orqali o'tadigan chiziq bo'ylab tuproq va o'simlik profilini tuzing.

Profil chizishda o'sha ikkita nuqta orqali o'tadigan chiziq bo'ylab hududning mutlaq balandligini bildiruvchi yo'g'on (gorizontal yo'nalishda) chiziq (masshtab asosida) o'tkaziladi. Profilning vertikal o'qi esa o'sha

hududlarning mutlaq balandligini (m hisobida) bildiradi. So'ngra o'sha ikki nuqta orasidagi yo'g'on (hududlarning mutlaq balandligi o'zgarishini bildiruvchi) qora chiziq ostiga shu yo'nalish bo'yicha tuproq turlarining, chiziq ustiga o'simlik turlarining o'zgarishi tushiriladi.

Shu yo'l bilan Toshkent — Termiz orqali o'tuvchi chiziq bo'ylab tuproq-o'simlik profilini tuzish mumkin.

Profil tuzib bo'lgach, nima uchun va qanday sabablarga ko'ra tuproq-o'simlik turlarining o'zgarib borishi izohlab beriladi.

Hayvonot dunyosi

Hayvonlar tabiatning harakatchan unsuri hisoblanib, geografik muhitning ajralmas bir qismi sifatida O'zbekiston landshafti tarkibiga kiradi.

O'zbekiston tabiiy sharoiti xilma-xil bo'lib, uning cho'l qismida bir xil tabiiy muhit mavjud bo'lsa, to'-qayzorlarda ikkinchi xil, adir va tog'larda yana boshqacha muhit mavjud.

Binobarin, o'sha tabiiy sharoitga bog'liq holda cho'lga, to'qayga, vohaga, adirga, tog'g'a va yaylovga moslashgan hayvonlar yashaydi.

Lekin talabalar shuni esdan chiqarmasliklari kerakki, hayvonlar tabiatning harakatchan unsuri bo'lganligi tufayli bir mintaqaga xos bo'lgan hayvonlar ikkinchi mintaqada ham uchrashi mumkin. Ayniqsa, etxo'r hayvonlar o'txo'r hayvonlar ketidan quvib, bir mintaqadan ikkinchi, hatto uchinchi mintaqaga ham o'tishlari mumkin.

O'zbekiston hayvonlari tarkib topish jihatidan bir xil emas, ba'zilari mahalliy sharoitda vujudga kelsa, ba'zilari boshqa regionlardan kirib kelgan bo'lib, sharoitga moslashib ketgan.

I-topshiriq. O'zbekiston hayvonlari qaysi zoogeografik mintaqaga va uning kichik hududiga mansubligini aniqlang. Ular kelib chiqishi (paydo bo'lishi) jihatidan quyida-gicha:

- a) Turkiston hududining o'zida paydo bo'lgan hayvonlar;
- b) Yevropa — Sibirdan kirib kelgan hayvonlar;
- d) Afrika va Old Osiyodan kirib kelgan hayvonlar;
- e) Hindi — Ximolaydan kirib kelgan hayvonlar.

Vazifa: o'quv qo'llanmadan va har xil adabiyotlardan foydalaniib, mahalliy va boshqa hududlardan kirib kelgan hayvonlar ro'yxatini tuzib, amaliy ishlar daftarida qayd qiling.

2-topshiriq. O'zbekiston hayvonlari yozdag'i jazirama issiq va quruq cho'l sharoitiga nisbatan salqin tog' sharoitiga qanday moslashgan, nima uchun cho'l hayvonlari bir yilda ikki marta passiv hayot kechiradi?

3-topshiriq. Cho'lga xos sute Mizuvchilar, sudralib yuruvchilar va hasharotlarning eng muhim turlari haqida qisqacha ma'lumot bering. O'zbekiston tabiiy xaritasidan adir, tog' va yaylov mintaqalariga qayerlar kirishini aniqlab, har bir mintaqaga xos hayvonlar ro'yxatini tuzing.

4-topshiriq. O'zbekiston geografik atlasining (birinchi qismi) 98—100-betlaridagi xaritalar ma'lumotlaridan foydalaniib, sute Mizuvchilar, sudralib yuruvchilar, kemiruvchilar turiga xos bo'lgan hayvonlar ro'yxatini tuzib, amaliy ishlar daftarida qayd eting.


5-topshiriq. O'zbekistondagi ayrim hayvon va qushlarning tarqalishini ko'rsatuvchi 18- va 19-rasmlardagi karta-chizmani tahsil qiling. Ovlanadigan hayvon va qushlarning hudud bo'yicha geografik tarqalishini aniqlang.

6-topshiriq. «O'zbekiston tabiiy geografiyasi» o'quv qo'llanmasi va ilovasidagi 22-rasm ma'lumotlaridan foydalaniib, hayvonlarga salbiy ta'sir etuvchi tabiiy va sun'iy omillarni tahlil qilib, amaliy ishlar daftarida qayd qiling. Ilovadagi 12-jadval ma'lumotlaridan foydalaniib, «O'zbekiston qizil kitobi»ga kirgan sute Mizuvchilar, sudralib yuruvchilar va qushlarning ro'yxatini tuzing.

7-topshiriq. Ushbu qo'llanmaning ilova qismidagi jadval ma'lumotlaridan, o'quv qo'llanmasidan va turli manbalardan foydalaniib, quyidagi 19-jadvalning bo'sh qolgan joylarini to'ldiring.



18-rasm. O'zbekistondagi ayrim hayvonlarning taraflishini ko'rsatuvchi xarita-chizma.



19-jadval.

O'zbekistonning tabiat mintaqalari.

Tabiat mintaqalari	Iqlim ko'rsatkichlari						Tup-roqlari	O'simliklari	Hayvonlari	Muhofaza ostiga olinadigan o'simliklar va hayvonlar turlari
	Yanvarning o'rtacha harorati, gradus	Iyulning o'rtacha harorati, gradus	O'rtacha yillik yingga miqdori, mm	Quyi qismida	Yuqori qismida	Quyi qismida				
Cho'l										
Adir										
Tog'										
Yaylov										

8-topshiriq. O'zbekistonning g'arbidan, sharqi va shimolidan janub tomon biror o'ziga xos qismni tanlab olib, (Urganch — Namangan yoki Toshkent — Termiz orqali o'tgan chiziq bo'ylab) kompleks tabiiy geografik profilini tuzish. Kompleks tabiiy geografik profil tuzish uchun quyidagilarga amal qilish kerak:

- profil tuzish uchun xarakterli joy tanlab olinadi;
- o'sha ikki nuqta orasidagi mo'ljallangan obyektlar (shahar, qishloq, daryo, ko'l, qir, adir, cho'qqi...)ning ro'yxati tuzilib, mutlaq balandliklari aniqlanadi;
- masshtab tanlab olinadi. Ikki nuqta orasidagi masofani (km hisobida) profilning gorizontal o'qiga qo'yiladi. Mo'ljallangan obyektlarning mutlaq balandligi (m. hisobida) vertikal o'qiga qo'yiladi;

- profil uchun tanlab olingan ikki nuqta orasidagi masofada — obyektlarning mutlaq balandligining o'zgarishini bildiruvchi yo'g'on qora chiziq (masshtabga rioya qilgan holda) o'tkaziladi;
- hududning mutlaq balandligining o'zgarishini bildiruvchi qora chiziq ostiga geologik xarita yordamida qanday yotqiziqlar mavjudligi ranglar yoki har xil shartli belgilarda tushiriladi;
- o'sha qora chiziq ustiga tuproqlar, uning ustiga esa o'simlik turlarining o'zgarishi qo'yiladi;
- profil vertikal o'qining chap tomoniga (obyektlarning mutlaq balandligini bildiruvchi o'qning) yanvarning o'rtacha haroratini (qora rangda) bildiruvchi yana bir ustun o'rnatiladi va u graduslarga ajratiladi. Profilning o'ng tomoniga qo'yilgan ustun (mm hisobida) o'rtacha yillik yog'in miqdorini bildiradi;
- profildagi iqlim ko'rsatkichlarini ushbu qo'llanmaning ilova qismidagi jadvallar ma'lumotlaridan oladi.

Tabiatni muhofaza qilish va qo'riqxonalar


1-topshiriq. O'zbekiston geografik atlasidan (1-qism) va o'quv qo'llanmaning 92-betidagi rasm ma'lumotlaridan foydalanib, atmosfera havosi va suv resurslarini ifloslovchi tabiiy va sun'iy omillar ro'yxatini tuzib, qaysi shaharlar atmosferasi va qaysi daryo suvlari qay darajada ifoslanganligini aniqlash.

2-topshiriq. O'quv qo'llanmaning ilovadagi 20-, 21-, 22-rasmlaridagi hamda O'zbekiston geografik atlasidagi xaritalardan foydalanib, tuproq eroziyasiga sababchi bo'lувчи, o'simlik turlarining kamayib ketishiga ta'sir etuvchi va hayvonot olamiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda muhofaza ostiga olinadigan o'simlik va hayvonot turlari ro'yxatini tuzish.


3-topshiriq. O'zbekiston yozuvsiz xaritasiga qo'riqxona, milliy (xalq) bog'lar, buyurtma va parvarishxonalarini to'ldirib, ularning bir-biridan farqini bilib olish. Ilovadagi

13-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, har bir qo'riq-xonada muhofaza qilinadigan o'simlik va hayvon turlari ro'yxatini tuzing.


4-topshiriq. Tabiat yodgorliklari muhofaza qilish xususiyatlari jihatidan geologik, paleontologik, geografik, biologik va arxeologik kabi turlarga bo'linadi. Vazifa, o'sha yodgorlik turlarida qanday tabiiy obyektlar muhofaza qilinadi. Amaliy ish daftariga o'quv qo'llanmadan va har xil manbalardan foydalanib, muhofaza qilinadigan tabiiy yodgorliklarni turlariga qarab ro'yxatini tuzish.



20-rasm. Tuproq eroziysi va uning ifloslanishi.



21-rasm. O'simliklarga ta'sir etuvchi omillar.



22-rasm. Hayvonlarga ta'sir etuvchi omillar.

II qism

O'zbekistonni tabiiy-geografik rayonlashtirish

O'zbekiston tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanish, ularni qayta tiklab, muhofaza qilish xalq xo'jaligini intensiv rivojlantirish, xalq xo'jalik tarmoqlarini ixtisoslashtirish, eng avvalo, hudud tabiatini ichidagi tafovutlarni har tomonlama va ilmiy jihatdan puxta bilishni taqozo etadi. O'zbekiston tabiatdagi tafovutlar ma'lum qonuniyatlar asosida joylashgan va tabiatda obyektiv mavjud bo'lgan hamda bir-biridan tabiiy xususiyatlari jihatidan farqlanadigan tabiiy-hududiy komplekslardan iborat. Tabiiy-geografik rayonlashtirish — bu tabiatda mavjud bo'lgan tabiiy-hududiy komplekslarni aniqlashdir.

O'zbekiston hududini tabiiy-geografik rayonlashtirishni tushunib olish va tahlil qilish uchun quyidagilarni xotiraga olib, qayta tiklang:

- tabiiy-geografik rayonlashtirishning mohiyati va prinsiplari;
- tabiiy-geografik rayonlashtirishning taksonomik (o'ichov-tizimi) birligi;
- tabiiy-geografik rayonlashtirishning nazariy va amaliy ahamiyati.

Laboratoriya darslarida talabalar O'zbekiston hududining tabiiy-geografik rayonlashtirishga oid har xil muammoli topshiriqlarni bajarish orqali respublika tabiatining o'ziga xos umumiy va regional xususiyatlari haqida yanada kengroq ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Ayniqsa, tabiiy-geografik rayonlashtirish orqali uning tabiiy-hududiy komplekslarining tabiiy sharoitlari tarkib topishidagi umumiy qonuniyatlarini puxta egallagan biror tabiiy-hududiy kompleksiga mustaqil ravishda kompleks tavsif bera oladigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanadi.

Amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalar O'zbekistonning biror tabiiy-geografik okrugiga mustaqil ravishda tavsif berishlari uchun ushbu fandan umumiy obzorda egallagan bilimlarini yashayotgan okrug yoki rayon misolida yanada aniqlashtiradilar.

Biz misol tariqasida talabalar o'zi yashab turgan okrug yoki tumaniga kompleks tabiiy-geografik tavsif berishlari uchun quyidagi tahminiy rejani tavsiya etamiz:

1. Kirish.
2. Tabiiy-geografik okrug yoki tumanning geografik o'mni.
3. Tabiatning o'rganilish tarixi.
4. Geologik tuzilishi va foydali qazilmalari.
5. Relyef va uning asosiy xususiyatlari.
6. Iqlimi va iqlim boyliklari.
7. Suvlari va suv resurslari.
8. Tuproq-o'simlik qoplamasi.
9. Hayvonot dunyosi.
10. Tabiiy boyliklari va ularning xo'jalikdagi ahamiyati.
11. Tabiatini muhofaza qilish va qo'riqxonalari.
12. Xulosa.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, talabalar mahalliy sharoitdan kelib chiqib, yuqorida tavsiya etilgan taxminiy rejani o'zgartirishlari mumkin.

I-topshiriq. P. Baratovning «O'zbekiston tabiiy geografiyası» («O'qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1996) o'quv qo'llanmasidagi O'zbekiston hududini tabiiy-geografik rayonlash-tirishning chizmasi (27-rasm)ni yozuvsiz xaritaga tushirib, quyidagi okruglar chegaralarini aniqlab, bilib oling:

I. Tekislik pravinsiyasi.

1. Ustyurt okrugi.
2. Quyi Amudaryo okrugi.
3. Qizilqum okrugi.
4. Quyi Zarafshon okrugi.

II. Tog'oldi va tog' pravinsiyasi.

1. Toshkent — Mirzacho'l okrugi.
2. Farg'onha okrugi.
3. O'rta Zarafshon okrugi.

4. Qashqadaryo okrugi.
5. Surxondaryo okrugi.
6. G'arbiy Tyanshan okrugi.
7. Turkiston — Nurota okrugi.
8. Hisor — Zarafshon okrugi.
9. Bobotog' okrugi.

Yuqorida har bir okrug o'z navbatida yana tabiiy-geografik rayon va landshaftlarga bo'linadi.

2-topshiriq. P.Baratov va M.Mamatqulovlarning «O'zbekiston tabiiy geografiyası» (7-sinf o'quvchilari uchun darslik. «O'qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 2003) kitobidagi O'zbekiston hududini tabiiy-geografik rayonlashtirish karta chizmasini yozuvsiz xaritaga tushirib bilib oling.

1. Chirchiq — Ohangaron rayoni.
2. Farg'ona rayoni.
3. Mirzacho'l rayoni.
4. Zarafshon rayoni.
5. Qashqadaryo rayoni.
6. Surxondaryo rayoni.
7. Qizilqum rayoni.
8. Quyi Amudaryo rayoni.
9. Ustyurt rayoni.

3-topshiriq. O'zbekiston hududini tabiiy-geografik rayonlashtirishning yuqorida qayd qilingan ikkala chizmasini bir-biriga solishtirib ko'ring. Ular orasidagi umumiylit va tafovutlar nimalardan iborat ekanligini aniqlang. Solishtirish chog'ida O'zbekistonning geologik, tabiiy, iqlimiylar va tuproq-o'simlik xaritasi bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki rayonlashtirishda o'sha xaritalardagi ma'lumotlar qanchalik aks ettirilganligi bilib olinadi.

4-topshiriq. O'quv qo'llanmadan, har xil adabiyotlardan va xaritalardan foydalanib, quyidagi vazifalarni bajarish kerak:

- a) nima uchun va qanday prinsiplarga asosan O'zbekiston hududi tabiiy-geografik rayonlarga ajratilgan?
- b) O'zbekiston hududi qaysi tabiiy-geografik pravinsiylarda joylashgan?
- d) nima sababdan va qanday omillarga asosan O'zbekiston hududi rayonlashtirishda tekislik, tog'oldi va tog' pravinsiylarda joylashgan?

vinsiyachasiga ajratilgan, ularning chegarasi qayerlardan o'tadi?

e) qanday prinsipga asoslanib okruglar o'z navbatida tabiiy-geografik rayon va landshaftlarga bo'lingan?

5-topshiriq. Ma'lum okrug yer usti tuzilishi haqida umumiyl tasavvurga ega bo'lish uchun uning gipsometrik profilini tuzish kerak. Profil tuzishga kirishishdan oldin o'sha okrugning yer usti tuzilishi haqida to'la ma'lumot beradigan xarakterli joy tanlab olinadi. O'sha hududlarda uchraydigan asosiy obyektlar (botiqlar, pasttekislik, tekislik, qir, tog', ko'l, daryo, shahar...) nomi va mutlaq balandligi amaliy ish daftariga yozib olinadi. So'ngra obyektlar birin-ketin gipsometrik profilga tushiriladi.

Profilni tuzish uchun quyidagi vazifalarni bajarish kerak:

a) gipsometrik profil tuzishdan oldin uning mashtabi aniqlab olinishi kerak. Profil tuzish uchun ikki xil mashtabdandan foydalilaniladi:

— vertikal mashtab obyektlarning balandligini ifoda laydi: 1 sm=100 m., 1 sm=200 m., 1 sm=300 m., 1 sm=400 m..

— Gorizontal mashtab bir obyekt bilan ikkinchi obyekt orasidagi masofani ko'rsatadi: 1sm=50 km., 1sm=100 km., 1sm=200 km., 1sm=250 km., 1sm=400 km.;

b) profil mashtabi tanlab olingach, uni tuzishga kirishiladi. Buning uchun millimetrl qog'ozning chap tomoniga obyektlarning balandligini ko'rsatuvchi vertikal ustun, ya'ni ordinat o'q chiziladi va unga vertikal mashtab yozib chiqiladi. O'sha vertikal (ordinat) o'qning pastki qismidan o'ng tomonga obyektlar orasidagi masofani bildiruvchi abssissa o'q tortiladi va unga gorizontal mashtab tushiriladi;

d) gipsometrik profil uchun tanlab olingan obyektlarning balandliklari yoki bir obyekt bilan ikkinchi obyekt orasidagi masofa xaritalarining balandlik shkalasi hamda mashtabi yordamida aniqlanadi. Lekin shu narsani esdan chiqarmaslik kerakki, obyektlar orasidagi masofani qanday mashtabli xarita yoki atlasdan aniqlab olishdan qat'i nazar, uni albatta

profil tuzish uchun qabul (olingan) qilingan gorizontal masshtabga moslash shart.

6-topshiriq. Har bir okrug uchun gipsometrik profil tuzilgach o'sha hudud tabiiy unsurlarining holati, ularning o'zgarishi haqida to'laroq ma'lumotga ega bo'lish uchun kompleks tabiiy-geografik profil tuziladi. Buning uchun o'sha gipsometrik profilning egri chizig'i ostiga joyning geologik tuzilishi, ustiga tuproq-o'simlik qoplami va iqlim unsurlari tushiriladi (hayvonot dunyosi mavzusining oxiridagi 8-topshiriqqa qarang).

O'zbekiston tabiiy-geografik rayonlarida bajariladigan amaliy ish jarayonida har bir okrug tabiiy unsurlarining kenglik va uzunlik bo'yicha o'zgarishi haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lish uchun o'sha joyning kompleks tabiiy-geografik profilini tuzish tavsiya etiladi.

Biz har bir okrug uchun kompleks tabiiy-geografik profil tuzishni quyidagi qismlar orqali o'tkazishni tavsiya etamiz.¹

Toshkent — Mirzacho'l tabiiy-geografik okrugida Arnasoy — Oqqovoq qishlog'i orqali.

Farg'ona tabiiy-geografik okrugida Farg'ona — Namangan shaharlari orqali.

O'rta Zarafshon tabiiy-geografik okrugida 66° sharqiy uzunlik orqali.

Qashqadaryo tabiiy-geografik okrugida Sanduqli qumligi — Shahrisabz shahari orqali.

Surxondaryo tabiiy-geografik okrugida Termiz — Denov shaharlari orqali.

G'arbiy Tyanshan tabiiy-geografik okrugida Angren shahri — Piskom qishlog'i orqali.

Turkiston — Nurota tabiiy-geografik okrugida 65° sharqiy uzunlik orqali.

Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugida 67° sharqiy uzunlik orqali.

¹ Talabalar ixtiyoriy ravishda ma'lum okrugning kompleks tabiiy-geografik profilini tuzish uchun boshqa qismlarni tanlab olishlari ham mumkin.

Quyi Zarafshon tabiiy-geografik okrugida 63° sharqiy uzunlik orqali.

Qizilqum tabiiy-geografik okrugida 64° sharqiy uzunlik orqali.

Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugida Urganch — Mo‘ynoq shaharlari orqali.

Ustyurt tabiiy-geografik okrugida 57° sharqiy uzunlik orqali.

O‘zbekiston hududining tabiiy-geografik okruglarida mustaqil bajariladigan laboratoriya topshiriqlarini har bir okrug uchun alohida emas balki xarakterli okrug misolida «andoza» tariqasida beramiz. Boshqa tabiiy-geografik okruglardan bajariladigan amaliy ishlar o‘sha yuqoridagi «andoza» tariqasida ko‘rsatilgan tartibda bajarilishi mumkin. Lekin shuni esdan chiqarmaslik kerakki, ko‘rsatilgan «andoza»ni har bir okrug tabiiy sharoitidan kelib chiqib o‘zgartirish mumkin.

Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugi

1-topshiriq. O‘zbekiston tabiiy xaritasi yordamida Quyi Amudaryo okrugining geografik o‘rnini aniqlang. Bunda okrugning eng chekka nuqtalarining geografik kenglik va uzunliklarini aniqlab, karta mashtabi va gradus yordamida shimoldan janubga necha km cho‘zilganini hisoblab chiqing (1-jadvaldan foydalaning).

2-topshiriq. Quyi Amudaryo okrugining chegaralari qaysi hududlar orqali, xususan, qaysi pasttekislik, cho‘l, qumlik, ko‘l, daryo, suv ombori, zovur orqali o‘tishini O‘zbekiston tabiiy xaritasi yordamida aniqlang. So‘ngra O‘zbekiston ma’muriy (iqtisodiy) xaritasi yordamida Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugi qaysi viloyat va shahar yoki qaysi respublika bilan chegaradoshligini ko‘rib chiqing?

3-topshiriq. Quyi Amudaryo okrugining konturini (tarxini) amaliy mashg‘ulot daftariga tushirib, chekka nuqtalarining geografik kengligi va geografik uzunliklarini yozib qo‘ying. So‘ngra poletka yordamida okrug maydonini hisoblab chiqing.

4-topshiriq. O'rta Osiyo tabiiy xaritasi bilan so'nggi vaqtida nashr etilgan tabiiy xaritasi va kosmosdan olingan rasmlarni bir-biriga taqqoslab, Orol dengizi qirg'og'ida, xususan, Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugi hududiga qarashli qirg'oq chizig'ida qanday o'zgarishlar yuz bergenligini tahlil qiling.

5-topshiriq. Quyi Amudaryo okrugi tabiiy xaritasini tahlil qiling. Okrug hududidagi plato, qoldiq tog'lar, pashtekisliklar, Amudaryoning qadimgi va hozirgi o'zanlari, deltasi hamda Orol dengizining qurib qolgan qismini aniqlang. Aniqlangan orografik unsurlarni (tabiiy obyektlarni) yozuvlsiz xaritaga tushirib, nomlarini yozib qo'ying.

6-topshiriq. O'zbekistonning paleogeografik karta sxemalarini (3-, 4-, 5-, 6-rasmlar) tahlil qiling. So'ngra Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrug hududida qaysi davrda quruqlik bo'lган, qaysi davrda uni suv bosgan va qaysi davrda yana quruqlikka aylanganligini aniqlang.

7-topshiriq. O'zbekiston geografik atlasi (1-qismi)dagi tabiiy, geologik, tektonik va eng yangi tektonik xaritalarni bir-biriga solishtirib, tahlil qiling. So'ngra Quyi Amudaryo okrugi orografik unsurlarning tektonik strukturalariga mos kelish yoki kelmasligini, qadimiy plitaning necha metr chuqurlikda joylashganligini, uning ustini qaysi davr yotqiziqlari qoplab olganligini aniqlang.

8-topshiriq. Mo'ynoq, Nukus, Urganch shaharlari orqali (Orol dengizidan Turkmaniston chegarasigacha) o'tkazilgan chiziq bo'ylab Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugining gipsometrik (relyef) profilini ishlang. Profilni tabiiy xarita bilan taqqoslab, okrug hududi yer usti tuzilishi shu yo'nalish bo'yicha qanday o'zgarishini va qaysi tekislik, qir, qoldiq, tog', qumlik Amudaryoning qadimgi va hozirgi o'zanlari orqali o'tganligini bilib oling.

9-topshiriq. Qo'llanmadagi 8-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, To'rtko'l va Chimboy shaharlarda quyosh nur sochib turish davrining (soat hisobida) diagrammasini tuzish. Bunda diagrammaning gorizontal o'qiga Quyosh nur sochib turgan oylar bo'yicha taqsimlanishi, ya'ni oylar, vertikal

o'qiga esa Quyosh nur sochib turgan davri (soat hisobida) ko'rsatiladi.

10-topshiriq. Urganch, Nukus va Mo'ynoq shaharlarida 22-iyun va 22-dekabrda hamda 21-mart va 23-sentabrda Quyoshning gorizontdan balandligini aniqlang. Urganch va Nukus shaharlarida 1 sm², 1 m² va 1 ga maydonga Quyoshdan tushadigan energiya miqdorini hisoblab chiqing.

11-topshiriq. O'zbekiston tabiiy iqlim xaritalarini va ilovadagi jadval ma'lumotlarini qunt bilan o'rganib chiqib, Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugi iqlimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlang, iyul va yanvar izotermalari qanday joylashganligini tahlil qiling. Havo harorati janubdan shimolga qanday o'zgaradi? Yanvar harorati Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugida O'zbekistonning boshqa okruglariga nisbatan qanday sabablarga ko'ra past? Orol suv sathining pasayishi okrug iqlimiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?

12-topshiriq. O'zbekiston geografik atlasidagi (1-qismi) iqlim xaritalari, xususan, shamollar yo'nalishini ko'rsatuvchi xarita ma'lumotlaridan foydalanib, Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugi hududida yanvar oyalarida ko'p esuvchi shamollar yo'nalishini aniqlang. Yozda va qishda ko'p esuvchi shamollar hudud iqlimiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Nima sababdan okrug hududiga shimoli-sharqdan esuvchi havo oqimlari kelganda harorat pasayib, yog'in yog'maydi, aksincha, shimoli-g'arbdan esuvchi shamollar yog'in beradi, buning sababini tushuntirib bering.

13-topshiriq. O'zbekiston iqlim xaritasidan Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugida yillik o'rtacha yog'in miqdorini aniqlang. Nima sababdan ushbu okrug hududida yog'in kam tushishini, aksincha, mumkin bo'lgan (potensial) bug'lanish yog'inga nisbatan 20 marta ko'pligini tushuntirib bering. Ilovadagi 2-jadval va quyida berilgan 20-jadval ma'lumotlari asosida To'rtko'l, Urganch, Nukus va Chimboyda yillik yog'in miqdorining fasllar bo'yicha taqsimlanish aylanma diagrammasini tuzing.

20-jadval.

**Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugida
yog‘inlar taqsimoti (mm hisobida).**

Stansiyalar nomi	Qish (12-1-2)	Ko‘klam (3-4-5)	Yoz (6-7-8-9)	Kuz (10-11)	O‘rtacha yillik yog‘in miqdori, mm
To‘rtko‘l	35	45	8	11	97 (100%)
Urganch	32	35	6	9	82 (100%)
Nukus	22	37	14	9	82 (100%)
Chimboy	30	36	8	13	87 (100%)

14-topshiriq. O‘zbekiston geografik atlasidagi (1-qism) iqlim xaritasini tahlil qilib, ilovadagi 1-jadval ma’lumotlaridan foydalanib, To‘rtko‘l, Urganch, Nukus shaharlaridagi bahorgi eng so‘nggi va kuzgi dastlabki sovuq tushadigan vaqtlnarni hamda sovuq bo‘lmaydigan davrning qancha davom etishligini bilib oling. Okrugda sovuq bo‘lmaydigan kunlar boshqa (Ustyurtdan istisno) hududlarga nisbatan qisqa, buning sababini tushuntirib bering.

Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugi hududida issiq kunlar miqdori O‘zbekistonning boshqa okruglaridan qanday farq qiladi?

15-topshiriq. Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugidan oqib o‘tuvchi Amudaryoning o‘ziga xos gidrologik xususiyatlari nimalardan iborat, uning suvi nima sababdan bahor va yozda ko‘payadi? Degish qanday hodisa?

16-topshiriq. Yozuvsiz xaritaga Quyi Amudaryo okrugidagi eng muhim (ilovadagi 8-jadval ma’lumotlaridan foydalanib) kanallar va zovurlarni tushirib, unga ilova tariqasida ularning qurilgan yili, uzunligi, qayerdan suv olishligi haqida ma’lumotlar to‘plang. O‘sha yozuvsiz xaritaga okrugdagi eng muhim ko‘llar va suv omborlarini ham tushiring.

17-topshiriq. «Orol dengizi muammosi» degan mavzuda ma’ruza tayyorlang. Unda Orol dengizi suv sathining pasayish sabablariga, uning salbiy oqibatlariga, suv sathini optimal yuzada saqlashga qaratilgan chora-tadbirlarga alohida e’tibor berish zarur.

18-topshiriq. O'zbekiston tuproq va o'simlik xaritalarini taqqoslab, tahlil qilib, Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugida qanday tuproq va o'simlik turlari mavjudligini, ularning qanday yo'llar bilan vujudga kelganligini aniqlang. Okrug tuproq-o'simlik turlarining o'ziga xos tomonlari nimalardan iborat, ular O'zbekistonning boshqa hududlaridagi tuproq-o'simlik qoplamidan qanday farq qiladi?

19-topshiriq. 59° sharqiy uzunlik orqali (Orol qirg'og'idan Turkmaniston davlat chegaralarigacha) o'tgan chiziq bo'ylab Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugining kompleks tabiiy-geografik profilini ishlang. Profilni tabiiy xarita bilan taqqoslab, shu yo'nalish bo'yicha tabiat unsurlarining o'zgarishini izohlab bering.

20-topshiriq. Quyi Amudaryo tabiiy-geografik okrugidagi tabiiy boyliklar va ularni muhofaza qilish sohasida olib borilayotgan tadbirlar nimalardan iborat? Badayto'qay davlat qo'riqxonasida qanday hayvon turlari va o'simliklar muhofaza qilinadi? Xorazm va Amudaryo delta buyurtmalari qay maqsadda barpo etilgan?

Qizilqum tabiiy-geografik okrugi

1-topshiriq. O'zbekiston tabiiy xaritasini tahlil qilib, Qizilqum tabiiy-geografik okrugining geografik o'rnini aniqlang.

a) Qizilqum tabiiy-geografik okrugi O'zbekistonning qaysi qismida joylashganligini, uning shimoliy va janubiy chekka nuqtalarining geografik kengliklari, sharqiylar va g'arbiy geografik uzunliklarini aniqlang;

b) O'zbekiston tabiiy xaritasi masshtabi yoki 1-jadval ma'lumotlaridan foydalaniib, geografik koordinatalar yordamida Qizilqum tabiiy-geografik okrugining g'arbdan sharqqa uzunligini, shimaldan janubga kengligini hisoblab chiqing;

d) Qizilqum tabiiy-geografik okrugining chegaralari qaysi tabiiy obyektlar va qaysi davlatlar hamda tabiiy-geografik okruglar bilan chegaradosh?

2-topshiriq. Amaliy mashg'ulot daftariga Qizilqum tabiiy-geografik okrugining konturini tushiring. Chegaralarini belgilab, chegaradosh davlatlar, viloyatlar nomlarini yozing. Paletka yordamida Qizilqum okrugi yer maydonini hisoblab chiqib, uni chegaradosh tabiiy-geografik okruglar yer maydonlari bilan taqqoslang.

3-topshiriq. Qizilqum tabiiy-geografik okrugining tabiiy xaritasini tahlil qiling. Okrug hududida joylashgan tekisliklar, qumliklar, botiqlar va qoldiq tog'larni aniqlang. Ularni yozuvsız xaritaga tushirib, nomlarini yozib qo'ying. Nima uchun Qizilqum okrugida ko'chib yuruvchi qumliklar (barxanlar) asosan Amudaryo sohillari, quduq va aholi yashaydigan joylar atrofida joylashganligi sababini aniqlang.

4-topshiriq. O'zbekiston geografik atlasi (1-qismi) va ushbu qo'llanmada berilgan kartasxemalarini tahlil qiling. Qizilqum tabiiy-geografik okrugi hududi qaysi geologik davrda quruqlikka aylangan, qaysi davrda tog'lar vujudga kelgan hamda oxirgi dengiz suvi qachon chekingan?

5-topshiriq. O'zbekistonning tabiiy, geologik, tektonik va eng yangi tektonik xaritalarini bir-biriga taqqoslab, tahlil qilib, quyidagilarga e'tibor bering:

a) geologik xarita yordamida Qizilqum tabiiy-geografik okrugining hududida uchrovchi tog' jinslarini aniqlab, ular qaysi era va davrlarga mansub ekanligini bilib oling;

b) tabiiy va tektonik xaritalarni bir-biriga taqqoslab, Qizilqum tabiiy-geografik okrugidagi orografik unsurlarning tektonik strukturalarga qanchalik mos kelishligini aniqlang;

d) Qizilqum tabiiy-geografik okrugi zaminidagi epigersin plitasi qanday joylashganligini (necha metr chuqruda joylashganligini) har xil manbalardan foydalanib aniqlang;

e) tabiiy xarita bilan eng yangi tektonik xaritalarni bir-biriga taqqoslab, okrug hududining qaysi qismi cho'kayotganligini aniqlang.

6-topshiriq. O'zbekiston geologik va qazilma boyliklar xaritasidan foydalanib, Qizilqum tabiiy-geografik okrugida qanday qazilma boyliklar mayjudligini va ular qaysi era va

davr yotqiziqlari orasida uchrashligini aniqlab, yozuvlari xaritaga tushiring.

7-topshiriq. Qizilqum tabiiy-geografik okrugi shimoldan janubga taxminan 6° ga cho'zilgan, binobarin, Quyosh uning hamma qismida usfdan balandligi bir xil emas. Shimoliy va eng janubiy chekkalarida 22-iyun va 22-dekabrda hamda 21-mart va 23-sentabrda Quyoshning gorizontdan balandligini aniqlang (iqlim mavzusidagi 8-topshiriqqa qarang).

8-topshiriq. Qizilqum tabiiy-geografik okrugi shimoldan janubga uzoq masofaga cho'zilgan, binobarin, Quyosh uning hamma qismiri bir xil isitmaydi. Iqlim xaritasidan foydalanib, okrugning shimalida va janubida quyosh radiatsiyasining yalpi miqdorini aniqlang.

a) okrugning eng shimaliy qismida bir yilda 1sm^2 yuzaga 140 kkal, eng janubiy qismiga esa 150 kkal issiqlik tushadi. Vazifa: okrugning eng shimaliy va eng janubiy qismida 1m^2 yuzaga va bir hektar maydonga Quyoshdan yiliga qancha miqdorda issiqlik tushishini aniqlash.

Buning uchun bir m^2 yuzada necha sm^2 borligi aniqlanadi, so'ngira o'sha sm^2 miqdor 140 yoki 150 kkalga ($140 \text{ kkal} \times 10000 = 140000$) ko'paytiriladi, chiqqan miqdor bir yilda 1m^2 yuzaga tushgan quyosh issiqligini bildiradi;

b) Quyoshdan yiliga bir hektar maydonga tushadigan yalpi radiatsiyani aniqlash uchun 140000 kkal 10000 m^2 ga ko'paytiriladi;

d) Qizilqum tabiiy-geografik okrugining eng shimaliy qismiga yiliga 1m^2 yuzaga Quyoshdan tushayotgan radiatsiyaning qancha miqdordagi ko'mir issiqligiga teng kelishini aniqlash uchun 140000 kkal ni 750 (bir kg ko'mir yoqilganda beradigan issiqlik)ga taqsimlanadi ($140000 : 750 = 187 \text{ kg}$). Demak, okrugning eng shimaliy qismida 1m^2 yuzaga tushayotgan Quyosh radiatsiyasi $187 \text{ kg sifatli ko'mir yonganda beradigan issiqlikka teng}$. Vazifa: shu yo'l bilan Qizilqum okrugining o'rta va janubiy qismida 1 m^2 yuzaga va bir hektar maydonga tushadigan Quyosh radiatsiyasini aniqlash.

9-topshiriq. O'zbekiston geografik atlasidagi (1-qism) iqlim xaritalaridan foydalanib, Qizilqum tabiiy-geografik

okrugida iyul va yanvar izotermalarining joylashishini tahlil qiling. Nima uchun va qanday omillar ta'sirida iyul va yanvar haroratining janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa tomon o'zgarib, pasayib borish sababini tushuntirib bering.

10-topshiriq. Qizilqum tabiiy-geografik okrugida yozda va qishda esuvchi havo oqimlarini aniqlang. Nima uchun qishda Qizilqum okrugi shu geografik kenglikda joylashgan O'rta va Quyi Zarafshon okrugiga nisbatan juda sovib ketadi?

11-topshiriq. O'zbekiston iqlim xaritasi yordamida Qizilqum tabiiy-geografik okrugida yillik yog'in miqdorining hudud bo'yicha taqsimlanishini tahlil qiling. Okrug hududiga yog'in nima uchun juda kam tushadi va uning miqdori qanday sabablarga ko'ra janubi-sharqqa tomon ko'payadi?

12-topshiriq. Qizilqum tabiiy-geografik okrugida yillik o'rtacha yog'in miqdorining (ilovadagi 2-jadval) oylar va yil fasllari bo'yicha taqsimlanish diagrammasini tuzing. Diagrammaning gorizontal o'qiga oylar, vertikal o'qiga yog'in miqdori (mm hisobida) qo'yiladi. Yog'inning yil fasllari bo'yicha taqsimlanishini aylana diagrammada bering. Unda aylana diagramma 100% deb olinib, fasllardagi yog'in miqdori (% hisobida) aylana ichida ajratib beriladi. So'ngra Qizilqum tabiiy-geografik okrugi hududida yozda g'arbiy havo oqimlari qishga nisbatan 2,5 marta ko'p esishiga qaramay, yog'in deyarli yog'maydi, sababini tushuntirib bering.

13-topshiriq. O'quv qo'llanma va iqlim xaritasidan foy-dalanib, Qizilqum tabiiy-geografik okrugi hududida yillik yog'in miqdori va bug'lanishiga oid ma'lumotlarni to'plab, tahlil qiling. So'ngra okrugning qaysi qismida namlik yetarli va qaysi qismida yetarli emasligini aniqlang. Okrug hududida mumkin bo'lgan (potensial) bug'lanish miqdori yillik yog'inga nisbatan 15—20 marta ortiq, sababini tushuntirib bering.

14-topshiriq. Illovadagi 1-jadval ma'lumotlarini va O'zbekiston geografik atlasi (1-qism)dagi iqlimga oid xaritalarni tahlil qilib, Qizilqum okrugining eng shimoliy va janubiy qismlarida sovuq bo'lmaydigan davr qancha davom etishligini

aniqlang. So'ngra uni Ustyurt va Quyi Zarafshon tabiiy-geografik okruglarida sovuq bo'lmaydigan kunlar bilan taqqoslab, orasidagi farq sababini tushuntiring.

15-topshiriq. Qizilqum tabiiy-geografik okrugi hududida oqar suvlar (daryo va soylar) yo'q, sababini tushuntiring. Aksincha, yer osti suvlari mavjud. Ushbu qo'llanmadagi 13-rasm va ilovadagi 10-jadval ma'lumotlardan foydalanib, okrug hududidagi artezian suv havzalarini yozuvsiz xaritaga tushirib, undan qanday maqsadda foydalanilayotganligini bilib oling.

16-topshiriq. O'zbekiston tuproq xaritasini tahlil qilib, nima sababdan Qizilqum tabiiy-geografik okrugi hududida tarqalgan sur qo'ng'ir, taqir, qumloq, qumli va boshqa tuproq turlarida chirindi miqdori juda kam hamda sho'ranganligini aniqlang.

17-topshiriq. Ushbu qo'llanmada berilgan o'simliklar xarita chizmasidan hamda «Qizil kitob»ga kirgan o'simliklar ro'yxati berilgan jadvaldan foydalanib, Qizilqum tabiiy-geografik okrugi hududida keng tarqalgan o'simliklar turi ro'yxatini tuzing, «Qizil kitob»ga kirgan o'simliklar turlarini bilib oling. Nima sababdan okrug o'simliklarining ildizi uzun, sertuk, barglari ingichka, tanasi nisbatan semiz ekanligini tushuntirib bering.

18-topshiriq. Qizilqum tabiiy-geografik okrugining shimoldan janubga 64° sharqiy uzunlik bo'ylab, g'arbdan sharqqa xohlagan kenglik bo'ylab kompleks tabiiy-geografik profil tuzing. Unda tabiat unsurlarining bir-biriga bog'liqligiga, ayniqsa, o'simlik qoplami iqlimi sharoitga qanchalik moslashganligiga alohida e'tibor bering.

19-topshiriq. «Qizilqum tabiiy-geografik okrugining tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanish» mavzusida ma'ruza tayyorlang. Bunda tabiiy boyliklardan qanchalik oqilona foydalanilayotganligiga, noratsional foydalanish oqibatida kelib chiqayotgan salbiy o'zgarishlarga, xususan, qayta cho'llashish jarayoniga alohida e'tibor bering. Shuningdek, okrug tabiat muhofazasida Qizilqum qo'riqxonasining ahamiyati nimalardan iborat ekanligini yoritish kerak.

Farg'ona tabiiy-geografik okrugi

1-topshiriq. O'zbekiston tabiiy xaritasidan Farg'ona tabiiy-geografik okrugining o'rni va chegaralarini aniqlang.

a) Farg'ona tabiiy-geografik okrugi O'zbekistonning qaysi qismida joylashganligini aniqlang. Farg'ona tabiiy-geografik okrugida joylashgan viloyatlar tabiiy va iqtisodiy xaritalaridan okrugning eng g'arbiy va sharqiy, eng shimoliy va janubiy chekka nuqtalarini topib, xarita mashtabi va gradus turi yordamida uning uzunligi va kengligini hisoblab chiqing (1-jadvalga qarang);

b) Farg'ona tabiiy-geografik okrugi chegarasi qaysi tog'lar, adirlar, tekisliklar, daryolar, kanallar va suv omborlari orqali o'tishligini tabiiy xaritadan, iqtisodiy xaritadan esa qaysi davlatlar va viloyatlar bilan chegaradoshligini aniqlang;

d) amaliy ishlar daftariga Farg'ona tabiiy-geografik okrugining konturini tushirib, chegaralarini aniqlab, paletka yordamida maydonining kattaligini va u O'zbekiston hududining necha foizini tashkil etishligini hisoblab chiqing.

2-topshiriq. Farg'ona tabiiy-geografik okrugida uchrovchi tog'lar, adirlar, tekisliklar, qumliklar hamda okrugga yondosh bo'lgan tog' tizmalarini, vodiylarni aniqlab, yozuvlari xaritaga tushirib, nomlarini yozib qo'ying.

3-topshiriq. Farg'ona tabiiy-geografik okrugi yer usti tuzilishi haqida to'laroq ma'lumotga ega bo'lish uchun Qo'qon — O'zgan hamda Farg'ona — Namangan shaharlari orqali o'tuvchi chiziq bo'ylab gepsometrik profil chizing. Profilni tabiiy xarita bilan taqqoslab, okrug g'arbdan sharqqa, shimoldan janubga qanday o'zgarib borishini tahlil qiling.

4-topshiriq. O'zbekiston geografik atlasidagi (1-qism) («Geograficheskiy atlas Uzbekistana», 1-chast) geologik xaritalarni va ushbu qo'llanmadagi polegeografik xaritchizmasini (1—6-rasmlar) tahlil qilib, Farg'ona okrugi qaysi davrlarda dengiz ostida bo'lgan va qaysi davrda quruqlikka aylanganini aniqlang.

5-topshiriq. O'zbekiston tabiiy, geologik, tektonik va eng yangi tektonik xaritalarini tahlil qiling. Farg'ona tabiiy-geografik okrugidagi orografiy unsurlarning tektonik strukturalariga

to‘g‘ri kelish va kelmasligini aniqlang. Geologik xarita yordamida okrug hududidagi tub jinslar va ularning ustini qoplab olgan yotqiziqlarning yoshini bilib oling. Eng yangi tektonik xarita yordamida nima sababdan okrug hududida tez-tez zilzila bo‘lib turishligini aniqlang.

6-topshiriq. Farg‘ona tabiiy-geografik okrugi geologik tuzilishi haqida yaxshiroq tasavvurga ega bo‘lish uchun $71^{\circ} 30'$ sharqiy uzunlik orqali o‘tuvchi chiziq bo‘ylab geologik profilni tuzing.

7-topshiriq. O‘zbekiston qazilma boyliklar xaritasini geologik xaritasi bilan taqqoslab, Farg‘ona okrugida qanday qazilma boyliklar borligini, ular qaysi davr yotqiziqlari orasida uchrashligini aniqlab, asosiy konlarni yozuvlisiz xaritaga tushiring.

8-topshiriq. «Iqlim» mavzusidagi 8-topshiriqda ko‘rsatilgan yo‘l bilan Qo‘qon, Andijon va Namangan shaharlarida 22-iyun va 22- dekabr hamda 21-mart va 23- sentabrda Quyoshning usfodan balandligini aniqlang.

9-topshiriq. Radiatsiya balansi xaritasidan foydalanib, Farg‘ona, Andijon va Namangan shaharlarida har bir m^3 va hektar yuzaga tushadigan yillik yalpi Quyosh radiatsiya miqdorini hisoblab chiqing.

10-topshiriq. 8-jadval ma’lumotlaridan foydalanib, Farg‘ona shahrida Quyosh nur sochib turish davrining (soat hisobida) diagrammasini tuzing. Unda diagrammaning gorizontal o‘qiga oylar, vertikal o‘qiga nur sochib turish davri (soat hisobida) qo‘yiladi.

11-topshiriq. O‘zbekiston geografik atlasidagi (1-qism) shamollar xaritasini tahlil qilib, Farg‘ona tabiiy-geografik okrugiga qishda va yozda esuvchi shamollar (havo oqimi) yo‘nalishini aniqlang. Okrug hududida iqlim unsurlarining taqsimlanishiga o‘sha havo oqimlarining ta’sirini bilib oling.

12-topshiriq. Nima uchun okrug hududida qishda bosim qo‘shni Mirzacho‘l okrugiga nisbatan yuqori, yozda, aksincha, past bo‘ladi? Bekobod shamoli qishda okrugdan Mirzacho‘l tomonga, aksincha, Qo‘qon shamoli bahor va kuz fasliida Mirzacho‘ldan Farg‘ona vodiysi tomonga esadi, sababini tushuntirib bering.

13-topshiriq. O‘zbekiston geografik atlasidagi (1-qism) haroratni ko‘rsatuvchi xaritalarni tahlil qiling. Farg‘ona tabiiy-

geografik okrugida iyul va yanvar izotermalarining joylashishini tushuntiring. Havo haroratining bu tariqa taqsimlanishiga ta'sir etuvchi omillarni bilib oling.

14-topshiriq. Farg'ona tabiiy-geografik okrugining shimaliy qismida sovuqsiz kunlar va effektiv harorat (Namangan shahrida sovuq bo'lmaydigan kun 229, kuzda birinchi sovuq tushguncha effektiv haroratlar yig'indisi 2386) janubiga (Farg'ona shahrida sovuqsiz kunlar 213, effektiv haroratlar yig'indisi 2223) nisbatan ortiq. Sababini tushuntirib bering.

15-topshiriq. Farg'ona, Andijon va Namangan shaharlarda haroratning oylar bo'yicha taqsimlanish diagrammasini tuzing. Diagrammaning gorizontal o'qiga oylar, vertikal o'qiga harorat (gradus hisobida) qo'yiladi. O'sha shaharlarda haroratning oylar bo'yicha taqsimlanishidagi tafovutni tahlil qiling (ilovadagi 1-jadvaldan foydalaning).

16-topshiriq. O'zbekiston iqlim xaritasini tahlil qilib, Farg'ona tabiiy-geografik okrugida yillik yog'in miqdorining hudud bo'yicha taqsimlanishini aniqlang. Nima uchun va qaysi omillar ta'sirida g'arbiy qismiga yog'in eng kam tushishligini bilib oling. Okrugda yog'inlarning oylar va yil fasllari bo'yicha taqsimlanishi haqida to'laroq tasavvurga ega bo'lish uchun quyidagi ikkita diagrammani ishlang:

1. Yog'inlarning oylar bo'yicha taqsimlanishini aks ettiruvchi diagramma. Unda diagrammaning gorizontal o'qiga oylar, vertikal o'qiga yog'in miqdori (mm hisobida) qo'yiladi.

2. Yog'inlarning yil fasllari bo'yicha taqsimlanishini bildiruvchi aylanma diagramma. Bunda yillik yog'in miqdori aylanmada 100% deb olinadi, faslardagi yog'in miqdori aylanma ichida ajratib (% hisobida) ko'rsatiladi. So'ngra diagrammalar tahlil qilinib, yog'inlarning notekis taqsimlanish sabablari aniqlanadi.

17-topshiriq. O'zbekiston geografik atlasidagi (1-qism) iqlimga doir xaritalarni tahlil qilib, Farg'ona tabiiy-geografik okrugida yog'in va mumkin bo'lgan bug'lanish miqdorini taqqoslab, okrug hududining qaysi qismida namlik yetarli va qaysi qismida yetishmasligini aniqlang. Bu topshiriqni yechishda «Iqlim» mavzusidagi 19-topshiriqdan foydalaning.

18-topshiriq. Ilovada berilgan 1-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, Farg'ona tabiiy-geografik okrugida dastlabki, kuzgi va bahorgi eng so'nggi sovuqlar vaqtini hamda sovuqsiz kunlar miqdorini Qo'qon, Farg'ona, Andijon va Namangan shaharlari misolida aniqlang. So'ngra nima uchun okrugning g'arbiy qismida (Qo'qonda) sovuq bo'lmaydigan kunlar sharqiga (Namanganga) nisbatan ozligini tushuntirib bering.

19-topshiriq. Ilovadagi 4-jadval ma'lumotlarini tahlil qilib, nima uchun Oloy — Turkiston tog'laridan boshlanuvchi daryolar (Sux, Isfara,) Chotqol tog'idan boshlanuvchi (Kosonsoy, G'ovasoy...) daryolarga nisbatan sersuv va eng ko'p suvini yozda (7—9-oylarda) oqizadi. Aksincha, Chotqol tog'laridan boshlanuvchi daryolarning eng ko'p suvi bahorda (3—6-oylarda) oqadi, sababini tushuntirib bering.

20-topshiriq. Ilovadagi 4-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, Chotqol, Farg'ona, Oloy — Turkiston tog'laridan boshlanuvchi daryolarning uzunligini, o'rtacha suv sarfini, o'rtacha oqim modulini aks ettiruvchi diagramma tuzing. Diagrammaning gorizontal o'qiga daryolar, vertikal o'qining o'ng tomoniga (qora rangda) uzunligi (km da), chap tomoniga (ko'k rangda) o'rtacha yillik suv sarfi (m^3/sek), o'ng tomon yoniga (yashil rangda) o'rtacha oqim moduli (l/sek , km^2) tushiriladi. Diagrammaning gorizontal o'qiga daryolarning uzunligi (qora rang), o'rtacha yillik suv sarfi (ko'k rang) va o'rtacha oqim moduli (yashil rang) ustunchalar tarzida ko'rsatiladi.

21-topshiriq. O'zbekiston tabiiy, iqlimiylarini qishloq xo'jalik xaritalarini taqqoslab, tahlil qilib, o'quv qo'llanma va adabiyotlardan foydalanib, Farg'ona tabiiy-geografik okrugi atrofidagi tog'lardan boshlanuvchi daryo va soyalar suvi nima uchun Sirdaryoga yetib bormasligini bilib oling.

22-topshiriq. Farg'ona tabiiy-geografik okrugidagi (tabiiy xaritadan foydalanib) eng muhim kanallar va suv omborlarining qaysi daryodan suv olishligini, qurilgan yilini, kanallarning uzunligini, suv omborlarining maydoni, suv sig'imi, qancha hektar yerlarni suv bilan ta'minlashligi to'g'risida ma'lumotlarni to'plab, amaliy ish daftariga qayd eting.

23-topshiriq. O'zbekiston geografik atlasidagi (1-qism) tuproqqa doir xaritalarni tahlil qiling. Okrug hududida qanday tuproq turlari mavjudligini aniqlang, nima uchun markaziy Farg'onadagi tuproq turlari sho'rlanganligini, uning oldini olish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rish kerakligini, nima uchun okrugning yuqori adirlarga yaqin qismida tuproq sho'rlanmaganligini aniqlang.

24-topshiriq. O'zbekiston o'simliklar xaritasini tahlil qilib, Farg'ona tabiiy-geografik okrugida qanday tabiiy (balandlik) mintaqalar mavjudligini, ularda qanday o'simliklar uchrashligini aniqlang. Okrug markaziy qismidagi qumli cho'llarda va Sirdaryo to'qayzorlarida qanday o'simlik turlari uchraydi? Okrugda uchrovchi eng muhim, noyob, «Qizil kitob»ga kirgan, muhofaza ostiga olingan o'simlik turlari ro'yxatini tuzib, amaliy ish daftariga qayd qiling.

25-topshiriq. Farg'ona tabiiy-geografik okrugi tabiiy sharoitining g'arbdan sharqqa hamda shimoldan janubga qarab o'zgarib borishi haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lish uchun Qo'qon — O'zgan va Farg'ona — Namangan yo'nalishi bo'yicha kompleks tabiiy-geografik profilini tuzing. Okrug tabiiy komponentlari o'zgarishi uning unsurlarini bir-biriga bog'liq ekanligining profilini tabiiy va iqlim xaritalariga taqqoslab, tahlil qilib, izohlab bering.


26-topshiriq. Amaliy ish oxirida «Farg'ona tabiiy-geografik okrugining tabiiy boyliklari va ularni muhofaza qilish» mavzusida ma'ruza matnini tayyorlang. Unda okrug tabiatini va boyliklarining hozirgi holati, unga ta'sir etuvchi tabiiy va antropogen omillar, tabiatni optimal saqlab, boyitib borishga qaratilgan chora-tadbirlarga alohida e'tibor bering.

Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugi

1-topshiriq. O'zbekiston tabiiy xaritasidan Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugining geografik o'rnini aniqlab, eng chekka nuqtalarini belgilab, ularning geografik kenglik va geografik uzunliklarini aniqlang. Okrug shimoldan janubga va g'arbdan sharqqa necha km

cho'zilganligini xarita mashtabi yoki 1-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, gradus turlari yordamida hisoblab chiqing.

2-topshiriq. O'zbekiston tabiiy va iqtisodiy xaritalaridan Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugi qaysi tog' ti-



23-rasm. Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugining orografiq chizmasi.

1. Taxtagorachi dovoni.
2. Hazrati Sultan cho'qqisi — 4648 m.
3. Chaqalikalon tog'ining Zebon cho'qqisi — 2336 m.
4. Qoratepa tog'ining Kamqo'ton cho'qqisi — 2595 m.
5. Ziyovuddin tog'ining Dardko'i cho'qqisi — 914 m.
6. Xuroson cho'qqisi — 3744 m.
7. Chaqchar tizmasi.
8. Qo'shtang tog'i.
9. Zarkosa cho'qqisi — 2230 m.

zimi, daryo, qaysi davlat va tabiiy-geografik okrug bilan chegaradoshligini aniqlang. Paletka yordamida okrug yer maydonini hisoblab chiqib, boshqa tabiiy-geografik okrullar yer maydoni bilan taqqoslovchi diagramma tuzing.

3-topshiriq. O'zbekiston tabiiy xaritasidan va O'zbekiston geografik atlasidan (1-qism) hamda ilovadagi 23-rasm ma'lumotlaridan foydalanib, Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugining orografik chizmasini ishlang va unga quyidagi tog'lar, cho'qqilar va daryolarning nomlarini belgilang:

Tog'lar: Zarafshon tizmasi, Chaqalikalon (Zebon cho'qqisi — 2336 m), Qoratepa (Kamqo'ton cho'qqisi — 2195 m), Zirabuloq, Ziyovuddin (Dardko'l cho'qqisi — 914 m), Hisor tizmasi (Hazrati Sulton cho'qqisi — 4648 m), Shertog', Sumsar, Chaqchar (Xuroson cho'qqisi 3744 m), Osmontarash, Beshnov, Eshakmaydon, Xontaxta, Maydinon, Qorasart, Qushtang, Boysun, Ketmonchopti, Ko'ktog', Usmontog', Kesiktog', Madantog', Tepagatom, Suv-siztog', Ko'xitang, Surxontog'...

Daryolar: Qashqadaryo, Oqsuv, G'uzordaryo, Jinnidaryo, Tanxoz, Yakkabog', Surxondaryo, To'palangdaryo...

4-topshiriq. Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugi geografik o'rni, relyefi va geologik tuzilishi jihatidan G'arbiy Tyanshan okruginidan qanday farq qiladi?

5-topshiriq. O'zbekiston geologik, tektonik va eng yangi tektonik xaritalarini tahlil qilib, Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugi hududi qaysi davrda suv ostida bo'lgan va qaysi tektonik jarayonda quruqlikka aylanib, tog'lar burmalingan (ko'tarilgan)ligini aniqlang. Okrugda uchrovchi tog'jinslari, ularning turlari hamda qaysi davrga xos ekanligini bilib oling. Okrug hududida uchrovchi qazilma boyliklar qaysi davr jinslari orasida uchrashligini aniqlang.

6-topshiriq. O'zbekiston tabiiy, tektonik va eng yangi tektonik xaritalarini bir-biriga taqqoslab, tahlil qilib, orografik obyektlar geostrukturalarga qanchalik mos kelishligini aniqlang. Nima uchun Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugi hududida tez-tez zilzila bo'lib turishi sababini (eng yangi tektonik xaritani tahlil qilib) tushuntirib bering.

7-topshiriq. O'zbekiston geografik atlasini (1-qism) to'rtlamchi davr va geomorfologik xaritalarni tahlil qilib, Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugi hududida antropogen davr (qadimiy muzlik) muzligi ta'sirida bo'lgan joylarni aniqlang.

8-topshiriq. «Iqlim» mavzusidagi 8-topshiriqda berilgan yo'l-yo'riq asosida Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugidagi Kitob va Boysun shaharlariда 22-iyun va 22-dekabr hamda kuzgi va bahorgi teng kunlikda quyoshning usfodan balandligini aniqlang. O'sha shaharlarda 1sm² va bir gektar yuzaga quyoshdan tushadigan energiya miqdorini hisoblab chiqing. 8-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, Kitob shahrida quyosh nur sochib turish davrinining (soat hisobida) oylar bo'yicha taqsimlanish diagrammasini tuzib, Samarqand shahri bilan taqqoslab, tahlil qilib, nima uchun Samarqanda quyosh ko'proq nur sochib turishi sababini tushuntirib bering.

9-topshiriq. O'zbekiston geografik atlasidagi (1-qism) iqlimga doir xaritalarni va ilovadagi 1-2-jadvallar ma'lumotlarini tahlil qilib, Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugi iqlimining tarkib topishiga ta'sir etuvchi omillarni izohlang. Okrug hududiga qish va yoz oylarida ko'p esuvchi shamollar yo'nalishini belgilab, ular haroratga va yog'inlar taqsimotiga qanday ta'sir etishimi aniqlang.

10-topshiriq. O'zbekiston iqlim va tabiiy xaritalarini tahlil qilib, Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik hududida iyul va yanvar izotermalarining joylashishini o'rganing. Havo haroratining o'zgarishiga relyefning ta'sirini hamda quyidan yuqoriga ko'tarilgan sari haroratning o'zgarishini izohlab bering.

11-topshiriq. Ilovadagi 1-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, Urgut, Dehqonobod, Boysun shaharlariда o'rtacha oylik haroratning taqsimlanish diagrammasini tuzing. Diagramma gorizontal o'qiga oylar, vertikal o'qiga harorat (gradus hisobida) qo'yiladi. Shaharlardagi haroratlar har xil rangda ko'rsatiladi. Ularni tahlil qilib, Urgut, Dehqonobod va Boysun shaharlari orasidagi harorat tafovularini tushuntirib bering.

12-topshiriq. O‘zbekiston iqlim xaritasini va ilovadagi 2-jadval ma’lumotlarini tahlil qilib, Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugi hududida yog‘inlarning taqsimlanishini aniqlang. Nima uchun balandlikka ko‘tarilgan sari yog‘inlar miqdori o‘zgaradi hamda tog‘larning janubiy, janubi-g‘arbiy yonbag‘irlariga shimoli-sharqi yonbag‘irlariga nisbatan yog‘in ko‘p tushadi, sababini tushuntirib bering.

13-topshiriq. Ilovadagi 2-jadval ma’lumotlaridan foydalanib, Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugidagi Urgut, Omonqo‘ton, Dehqonobod, Boysun nuqtalarida yillik yog‘inning (har birini alohida) fasllar bo‘yicha (% hisobida) taqsimlanishi aylanma diagrammasini tuzing, ular orasidagi tafovutlarni tahlil qilib, sababini aniqlang.

14-topshiriq. O‘zbekiston geografik atlasidagi (1-qism) iqlim xaritalaridan va ilovadagi 1-jadval ma’lumotlaridan foydalanib, Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugidagi Urgut, Kitob va Boysun shaharlarida bahorgi eng so‘nggi va kuzdag‘i dastlabki sovuq tushish vaqtlarini hamda sovuq bo‘lmaydigan kunlarning davomiyligini aniqlang. Ular orasidagi tafovutlar nimalarga bog‘liq ekanligini bilib oling.

15-topshiriq. O‘zbekiston tabiiy xaritasidan va ilovadagi 3-, 5-, 6-jadvallardagi ma’lumotlardan foydalanib, Hisor — Zarafshon tabiiy -geografik okrugi hududidan boshlanuvchi daryolarni aniqlab, ular qanday manbalardan suv to‘plashini, suvi qachon ko‘payishi, loyqaligi va muzlashi kabilarni amaliy ish daftariga qayd eting.

16-topshiriq. Ilovadagi 3-, 5-, 6-jadvallar ma’lumotlari asosida Qashqadaryo, Oqsuv, G‘uzor daryolari yillik oqimining oylar bo‘yicha taqsimlanish diagrammasini tuzing. Diagrammaning gorizontal o‘qiga oylar, vertikal o‘qiga suv sarfi (m^3/sek) qo‘yiladi. Nima uchun Oqsuv boshqa daryolarga nisbatan yozda ham ko‘p suv (yillik oqimini 35,5%) oqizadi. Sababini tushuntirib bering (daryo oqimlari har xil rangda ko‘rsatiladi).

17-topshiriq. O‘zbekiston tabiiy va tuproq hamda O‘zbekistonning geografik atlasidagi (1-qism) tuproq eroziyasi xaritalarini tahlil qiling. Hisor — Zarafshon tabiiy-

geografik okrugida uchrovchi tuproq turlarini aniqlab, balandlikka ko'tarilgan sari ular qanday o'zgaradi, nima uchun archazor va yong'oqzor o'rmonlardagi tuproq turining rangi qo'ng'ir va qoramtilr bo'lib, gumus miqdori ko'p, okrug hududining qaysi qismida nima uchun tuproq eroziyasi vujudga keladi va ularning oldini olish uchun qanday chora-tadbirlar ko'riladi, shularga javob hozirlang.

18-topshiriq. O'zbekiston geografik atlasidagi o'simlikka doir xaritalarni tahlil qilib, Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugida qanday balandlik mintaqalari joylashgan va ularda qanday o'simlik turlari mavjudligini aniqlang. Okrug hududida uchrovchi mevali, dorivor va boshqa foydali o'simliklar ro'yxatini amaliy ishlar daftariga qayd qiling. Ilovadagi 12-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, noyob, yo'qolish arafasida turgan va «O'zbekiston qizil kitobi»ga kiritilgan o'simliklar ro'yxatini tuzing.

19-topshiriq. Ilovadagi 12-jadval ma'lumotlaridan foydalangan holda O'zbekiston geografik atlasidagi hayvonlarga doir xaritalarni tahlil qilib, Hisor — Zarafshon tabiiy-geografik okrugida uchrovchi hayvonlar ro'yxatini tuzing. Undagi «Qizil kitob»ga kiritilgan sutmizuvchilar, sudralib yuruvchilar va qushlarni aniqlab, amaliy ish daftariga qayd qiling.

20-topshiriq. Shahrisabz shahri bilan Hazrati Sulton cho'qqisi orqali o'tadigan chiziq bo'ylab kompleks tabiiy-geografik profilini ishlang. Profilni tabiiy, iqlim va tuproq xaritalari bilan taqqoslab, tabiat unsurlari orasidagi o'zarobog'liqlikni izohlab bering.

21-topshiriq. O'zbekiston geografik atlasidagi tabiatni muhofaza qilishga doir xaritalarni tahlil qilib, ilovadagi 13-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, okrugdagisi «Hisor qo'riqxonasi va uning hududiy tabiatini muhofaza qilish» mavzusida ma'ruza tayyorlang. Amaliy ish daftariga Hisor qo'riqxonasida muhofaza ostiga olingan o'simlik va hayvonlar ro'yxatini tuzing.

Kitob davlat geologik qo'riqxonasi qay maqsadda tashkil etilgan va qanday geologik obyektlar muhofaza qilinishi kerakligini bilib oling.

O‘zbekiston tabiiy geografiyasidan ko‘rgazmali quollar (stendlar) tayyorlash

O‘zbekiston tabiiy geografiyasini puxta o‘rganishda, xususan, laboratoriya ishlarini bajarishda ko‘rgazmali materiallar, ularni tayyorlash juda muhim ahamiyatga ega. Laboratoriya mashg‘ulotlarida har xil ko‘rgazmali materiallarni tayyorlash orqali talabalarda mustaqil ishslash malakasi shakllanadi. Bu bilan ularda turli mazmundagi xaritalar, ko‘rgazmali materiallar, diagrammalar tayyorlash, har xil chizmalar, grafiklar, profillar chizish malakasi hosil bo‘ladi.

O‘zbekiston tabiiy geografiyasida tayyorlanadigan ko‘rgazmali (illyustratsiyali) stendlarga: mavzuga oid har xil xaritalar tayyorlash; geografik, profil, diagrammalar ishslash; rasmlar, qisqa matnlar, gerbariylar va boshqa ko‘rgazmali ma’lumotlar tayyorlash kiradi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, stenddagi barcha ko‘rgazmali ma’lumotlar (materiallar) mazmuni jihatidan bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lishi zarur.

Talabalar o‘zлari tayyorlaydigan ko‘rgazmali stendlardan O‘zbekiston tabiiy geografiyasidan bo‘ladigan nazariy ma’ruzalarda, laboratoriya mashg‘ulotlarida, talabalarning ilmiy-metodik konferensiyalarida, pedagogik amaliyotlarda foydalanishlari mumkin.

Ko‘rgazmali stendlar tayyorlash tufayli har xil adabiyyotlar, kartografik manbalar bilan bevosita tanishib, ularni tahlil va sintez qilish. Bu talabalarda zarur bo‘lgan ma’lumotlarni tanlay bilish, ularda reja asosida tartib bilan bir-biriga uzviy bog‘liq holda joylashtirish kabi malaka va ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, talabalar ko‘rgazmali stendlarni o‘qituvchi rahbarligida, uning maslahati, yo‘l-yo‘rig‘i va ko‘rgazmalariga tayangan holda bajarishlari zarur. Aks holda, stend uchun to‘plangan ma’lumotlar bir-biriga uzviy bog‘lanmay, bir-birini to‘ldirmay va bir mazmunga qaratilmay qolishi mumkin.

O‘zbekiston tabiiy geografiyasi fanining har bir tabiiy unsurlaridan ko‘rgazmali stendlar tayyorlash mumkin. Lekin biz andoza tariqasida «O‘zbekiston tabiiy geografiyasining

umumi tavsifi»dan va «Daryolari» regional qismidan «G‘arbiy Tyanshan okrugi» mavzusida tayyorlanadigan ko‘rgazmali stend haqida ma’lumot beramiz. O‘zbekiston tabiiy geografiyasining boshqa mavzulari va okruglari haqida tayyorlanadigan ko‘rgazmali stendlar yuqorida ko‘rsatilgan andozaga suyangan holda bajarilishi mumkin.

1. O‘zbekiston daryolari va ularning xo‘jalikdagi ahamiyati

«O‘zbekiston daryolari va ularning xo‘jalikdagi ahamiyati» stendini quyidagi reja asosida tayyorlash mumkin:

1. O‘zbekiston daryolari va ularning xalq xo‘jaligidagi ahamiyatiga tegishli turli xil ma’lumotlar, xaritalar, rasmlar to‘planadi.
2. Stend o‘rtasiga «O‘zbekiston tabiiy xaritasi» joylashtiriladi.
3. O‘rnatilgan xaritaga O‘zbekistonning yirik daryolari, undan boshlanuvchi kanallar, unda qurilgan suv omborlari va GESlari tushirilib, nomlari yozib qo‘yiladi.
